

**O'ZB KIST N R SPUBLIK SI
LIY V O'RT M SUS T 'LIM V ZIRLIGI**

F RG' N D VL T UNIV RSIT TI

CHET TILLARI F KULT TI

**fransuz tili yo'nalishi 13.55-guruh bitiruvchisi
Jo'rayev Zuhriddin Kamoliddin o'g'lining**

**“Boburnomaning fransuzcha tarjimasi va uning
qiyosiy tahlili”
mavzusidagi**

BITIRUV-MALAKA VIY ISHI

Ilmiy r h b r: Shokirova M.

F rg' n - 2017

Bitiruv-m 1 k viy ish k f dr ning 2017-yil _____ d gi ____
yig‘ilishid muh k m qiling n v him yag t vsiya etilg n.

K f dr mudiri:_____ M. Qahhorova, dotsent, f.f.n.

T qrizchi: M. Abdukarimova,
Toshloq xizmat ko’rsatish va servis kolleji fransuz tili o’qituvchisi

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-7
I. BOB. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA “BOBURNOMA” ASARINING JAHON ADABIYOTIDA TUTGAN O’RNI.....	8-9
1.1. Bobur va “Boburnoma” g’arb nigohida.....	10-19
1.2. “Boburnoma”ning fransuzcha tarjimasi xususida.....	20-29
II. BOB. BADIY TARJIMA VA UNING QIYOSIY TAHLILI. “BOBURNOMA”.....	30-31
2.1. “Boburnoma”da joy nomlariga oid so’zlarning qiyosiy tahlili.....	32-42
2.2. “Boburnoma”da xarakter va qiyofaga oid so’zlarning qiyosiy tahlili.....	43-53
2.3. “Boburnoma” da manzara va tasvirga oid so’zlarning qiyosiy tahlili.....	54-62
XULOSA.....	66-67
FOYDALANILGAN	
ADABIYOTLAR.....	68

**MAVZU: “BOBURNOMA”NING FRANSUZCHA TARJIMASI VA UNING
QIYOSIY TAHLILI”**

KIRISH.

**I. BOB. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA “BOBURNOMA”
ASARINING JAHON ADABIYOTIDA TUTGAN O’RNI.**

- 1.1. Bobur va “Boburnoma” g’arb nigohida.
- 1.2. “Boburnoma”ning fransuzcha tarjimasi xususida.

**II. BOB. BADIY TARJIMA VA UNING QIYOSIY TAHLILI.
“BOBURNOMA”.**

- 2.1. “Boburnoma”da joy nomlariga oid so’zlarning qiyosiy tahlili.
- 2.2. “Boburnoma”da xarakter va qiyofaga oid so’zlarning qiyosiy tahlili.
- 2.3. “Boburnoma” da manzara va tasvirga oid so’zlarning qiyosiy tahlili.

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng, milliy qadriyatlarni qayta baholash o‘ziga xos bir jarayon tusini oldi. Ayniqsa, keyingi yillarda milliy ma’naviyatning tarkibiy qismi bo‘lgan, o‘zbek tilshunosligi tarixi va rivojini bir tarixiy asar tili misolida o‘rganish, yanada kuchaydi.

Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov aytganlaridek: “Xalqning ma’naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o‘ziga xosligi qayta tiklanayotgan sharoitda, jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo‘lidan muvoffaqiyatli ravishda olg‘a siljитishda hal qiluvchi ta’bir joiz bo‘lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir”¹

Bu ayniqsa, tarixiy haqiqatni badiiy aks ettirgan asarlarning tilini o‘rganish misolida yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Chunki, adabiy manbalarni, ayniqsa ularning tilini o‘rganish o‘sha millatning azaliy, qadimiylarini va asarlari tilini o‘rganish ana shu jihatdan ham qimmatlidir. Boburning “Boburnoma” asari ensiklopedik ilmiy-badiiy meros bo‘lib, jahon xalqlari tomonidan o‘rganib kelinadi. Xususan, dunyoning deyarli barcha yirik tillariga tarjima etilgan. Biz quyida ko‘rib chiqajak ish – “Boburnoma” va uning fransuzcha tarjimasi bo‘lgan “Le livre de Babur” kitoblari tadqiq etilib, tadqiqot o‘zida asosan ikki til – o‘zbek va fransuz tillari turli jihatdan qiyosiy tahlil qilinadi. Til strukturasiga taalluqli bo‘lgan grammatika, tarjima uslubi va tarjima masalalari muolaja qilinadi. Asarda qayd etib o‘tilgan tarixiy shaxslar nomlari, xarakter yoki joy nomlari hamda manzaralarining ikki tildagi ko‘rinishi tahlilda o‘z aksini topadi. Hozirgi kungacha ham o‘zbek tili va fransuz tili strukturalarining qiyosiy tahlillari kam uchraydi. Shu nuqatayi nazardan bu yirik asardan ba’zi mavzularniga tanlab olib, qiyosiy tahlil qilindi. Aytish joizki, asar tilida keltirilgan kishi nomlarini, xarakter va qiyofasini guruhlarga bo‘lib tilshunoslik nuqtayi nazaridan leksik-semantik va grammatik tahlilini amalga oshirish, ular xususida umumlashma ilmiy xulosalar chiqarish o‘zbek qiyosiy tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biri deb hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbliji. “Boburnoma”da keltirilgan joy nomlari, manzara va tasvirga oid so‘zlar, portret va o‘simgilik nomlarini ma’no va tuzilishi jihatidan

¹ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin.–T.: O‘zbekiston. 2002. 231-bet.

guruhlarga bo‘lib, ham morfologik, ham sintaktik tomonlarini o‘zbek tilshunosligi nuqtayi nazaridan o‘rganish ushbu bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini belgilaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur XVI asr adabiy jarayonida katta iz qoldirgan va o‘nlab asarlar yaratgan ijodkor bo‘lishiga qaramay uning “Boburnoma” asari adabiyotshunoslilik va tilshunoslik nuqtayi nazaridan maxsus o‘rganilgan va o‘rganib kelinmoqda. Bu asar fransuz tiliga ilk bora 1871-yilda Pave de Kurtey tomonidan o’girilgan bo’lsa, uni hozirgi zamonaviy fransuz tiliga muvofiqlashtirib, o‘quvchilarga tushunarli tarjima qilgan doktor Jan Bake Grammondir. Biz qiyosiy tahlilda aynan shu tarjimadan foydalanamiz. Aytib o’tilganidek, fransuz va o‘zbek tillarini qiyosiy tahlili turli usullarda o‘rganilgan bo’lishi mumkin. Ammo, aynan kishi xarakteri va portreti, joy nomlari va tabiat manzaralariga oid leksemalar qiyosiy tahlili quyida kelajak tarzda qilinmagan. “Boburnoma” asarini qiyosiy tahlil nuqtayi nazaridan o‘rganish va undagi kishi nomlari va manzaraga oid leksema va so’zlarni maxsus guruhlarga bo‘lib ilmiy tasnif va tavsifini amalga oshirish, shuningdek, hamda bu kabi so’zlarning qo’llanish uslublarini tadqiq etish o‘zbek tilshunosligining dolzarb ilmiy muammolaridandir.

Tadqiqot vazifikasi. BMI maqsadidan kelib chiqqan holatda quyidagi vazifalarni bajarish talab etiladi:

- Boburning shoir va mutafakkir sifatida qilgan ishlari, asarlari, ularning mazmunini tavsifiy aniqlash;
- “Boburnama”ning qomusiy asar sifatida o‘zbek va jahon adabiyotida tutgan o‘rnini belgilash;
- asarning ikki tildagi nusxasida keltirilgan kishi nomlari, xarakter va qiyofasi, tabiat manzarasi va tasvirga oid so’zlarni qiyosiy tahlil etish;
- “Boburnoma” tilida va fransuz tilida qo’llanilgan so’zlarni leksik-semantik va grammatik tahlilini amalga oshirish;
- asar va uning tarjimasidan misollar keltirib, ularni ma’no jihatidan tahlil qilish va ular xususida umumlashma ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Tilshunoslikning eng serqirra jabhalaridan biri bo'lgan badiiy tarjima va tarjima nazariyasini o'rganish tadqiqot ishining obyekti bo'lsa, aynan tarjimaning qiyosiy tahlili ishning predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning manbalari. BMI ga quyidagicha kitoblarni asosiy manba qilib oldik:

1. Z. M. Bobur "Boburnoma" (hozirgi o'zbek tiliga mos nashr) T:, O'qituvchi NMIU. 2008.
2. J. L. Baque-Grammont "Le livre de Babur – Baburnama" Paris CEDEX 1985.
3. S. Jamolov. "Bobirnoma"ning badiiy qimmati haqida" T:, Nizami. 1961.
4. Fransuzcha – o'zbekcha lug'at. T:, Fransuz IFSEAC 2008.
5. Dictionnaire Hachette Encyclopedique. Paris CEDEX 2005

Tadqiqotning metodologik va nazariy asoslari. Tadqiqotni "Boburnoma" da keltirilgan kishi xarakter va portreti, joy nomlari va tabiat manzarasiga hamda tasvirga oid so'zlarining, shuningdek, o'zbek tili va fransuz tilida qo'llaniladigan ushbu sanab o'tilgan mavzular sohasidagi qilinishi kerak bo'lgan hozirgi kundagi muammolar tashkil etadi. Ishda ilmiy haqqoniylilik va tadrijiyilikka rioya qilinadi. Hozirgi o'zbek tilshunosligining qiyosiy tilshunoslik qismida amalga oshirilgan monografik ishlar va ularning ilmiy xulosalari bitiruv malakaviy ishimizning diqqat markazida turdi. Tadqiqotda S. Jalolov, J. Jamolov, A. Qosimov, M. Qahharova, G. Roziqova, M. Xodjayev singari tilshunos va filologlarning tilshunoslik va qiyosiy tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlarida erishilgan yutuqlardan istifoda etildi.

Shuningdek, ishda tilshunoslikning qiysoiy tahlil sohasida natija berib kelayotgan usullardan foydalilanadi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

1. "Boburnoma" va uning mazmuni xususida ilmiy ma'lumotlar berish.
2. "Boburnoma"ning kompozitsiya va uning yozilish uslubini o'rganish.

3. O‘zbek tilshunosligining qiyosiy tahlil sohasida qilingan ishlar va hozirgi kundagi o‘zbek va fransuz tilining qiyosiy tahlilga doir tarmog’ini qo‘llashning o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatish.
4. Boburning “Boburnoma” asarida keltirib o‘tilgan kishi xarakter va qiyofasi, joy nomlari va tasvir-manzaraga oid nomlar yuzasidan tasnif va qiyosiy tahlilni amalga oshirish.
5. “Boburnoma”da qayd etilgan nom va sifatlashga oid leksemalarni leksik-semantik va grammatik hamda qiyosiy tahlilini amalga oshirish.
6. “Boburnoma”da ta’kidlab qiyofa va xarakter, kishi va joy nomlarini izohli lug‘atlar va tegishli manbalar asosida leksik, grammatik va etimologik tadqiq etish, qiyosiy tahlil qilish va ular xususida ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Zahiriddin Muhammmad Boburning “Boburnoma” asari va uning fransuzcha tarjimasida qo‘llaniladigan xarakter va qiyofa hamda tasvirlashni qiyosiy tahlil nuqtayi nazaridan maxsus ilmiy-tadqiqot o‘tkazilmagan. Shu sababli, mazkur asarning fransuz tilidagi istisnoli va o‘xshashlik nuqtayi nazardan qiyosiy tahlil etilishi BMI ning ilmiy yangiligini belgilaydi. Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi, yana quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- tadqiqotda birinchi bor Boburning “Boburnoma” asari va uning fransuz tilidagi nusxasidan kishi va joylar nomlari, manzara va tasvirga oid so‘zlar qiyosiy tahlil jihatidan o‘rganildi, ilmiy tasnif va tavsif etildi;
- tanlab olingan mavzuga taalluqli so‘zlar ma’no va so‘z turkum jihatidan ham o‘rganildi, ular xususida ilmiy-nazariy xulosalar chiqarildi;
- tadqiqotda qiofa va xarakterga oid leksemalar alohida ajratilib, ularning yasalishi fransuz va o‘zbek tillari nuqtayi nazaridan o‘rganiladi;
- sanab o‘tilgan leksemalar etimologik, leksik-semantik ma’nolari ilmiy tahlil etildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu BMI fransuz va o‘zbek tillarining umumiyligi va xususiy jihatlari - kishi qiyofasi va xarakteri, manzara va tasvirga oid so‘zlarning etimologik, leksik-semantik va grammatik,

ayniqsa, qiyosiy tahlilini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqot ekanligi bilan ahamiyatlidir. Uning natijalaridan o‘zbek va fransuz tilida ilmiy asar yohud tadqiqlarning qiyosiy tahli etilish bo‘yicha quyidagi muammolarini yechishda istifoda etish mumkin:

- o‘zbek va fransuz tillaridagi qiyofa va xarakter bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlarni ma’no jihatidan o‘rganishda;
- o‘zbek va fransuz tillarida manzara va tasvirga oid so‘zlarning ayni tarjimasi yoki istisnosi, til strukturasi moslashgan yoki moslashmagan aniqlovchili so‘z birikmasidan yasalgan so‘zlarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganib ular xususida ilmiy xulosalar chiqarishdir;
- o‘zbek va fransuz tillaridagi “Boburnoma” asarida keltirilgan kishi qiyofa va xarakterini ifodalovchi so‘zlarning leksik va semantik ma’nolarini chuqurroq tushunishda hamda ularni qiyosiy tahlil etishda;
- umum ta’lim maktablari, akademik litsey va kollejlarda sifatlash va yasvirlashga oid mavzularni o‘tishda, tarjima sohasida o‘quvchilarga izohli lug’at tuzishda foydali ma’lumot taqdime etish.

Ishning tuzilishi va hajmi. BMI kirish, ikki asosiy bob: ikki faslni o‘z ichiga olgan birinchi, uch faslni qamragan ikkinchi asosiy bob, xulosa 24 nomdagagi foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. BMIning umumiylajmiy hajmi 66 betni tashkil qiladi. (Shuningdek, 16032 so‘z).

I BOB. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA “BOBURNOMA” ASARINING JAHON ADABIYOTIDA TUTGAN O’RNI.

Zahiriddin Muhammad Bobur – shoh va shoir sifatida tarixda o’chmas iz qoldirgan o’zbek xalqining tomm ma’nodagi buyuk farzandlaridan biridir. Quyida Bobur haqida ba’zi xronologik ma’lumotlarni berib o’tishni joiz deb topildi:

- Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yilning 14 fevralida Andijonda, Farg’ona ulusining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga kelgan;
- 1494-yili otasining o’limidan so‘ng 12 yoshida Farg’ona hokimi etib tayinlangan;
- 1504-yili Shayboniyxon Andijonni ham qo‘lga kiritgandan so‘ng, Bobur janubga qarab yo‘l oldi va Kobul ulusida o‘z hokimiyatini o‘rnatgan;
- 1526-yil aprelida Panipatda Hindiston sultonı Ibrohim Lo‘di bilan va 1527 yili mart oyida Chitora hokimi Rano Sango bilan bo‘lgan janglarda Boburning qo‘li baland kelgan;
- Bobur 1530-yilning dekabr oyida Agra shahrida vafot etadi. Uning xoki keyinchalik vasiyatiga ko‘ra Kobuldagı “Bog‘i Bobur”ga olib kelingan;

Shoh shoir Boburning shaxsiyatidagi 7 fazilat:

1. Vatanparvarlik;
2. Yuksak himmatlilik;
3. Jasurlik;
4. Boshqaruvda benazirlik;
5. Odamlarga farovonlik sog‘inish;
6. Jangchilar ko‘ngliga yo‘l topish;
7. Adolat qilmoqlik.

Bobur ana shu fazilatlar bilan otasi yo‘lidan borib, mashhur sufiy — Xoja Ubaydulloh Ahror Valiyga ixlos qo‘ygan. Uning tariqati ruhida tarbiyalangan. Umrining oxiriga qadar shu e’tiqodga sodiq qolgani uning jami ijodi va faoliyatida aks etadi. Keyinchalik, «Boburnoma» asarida Bobur Xoja Ahror ruhi bir necha bor

uni muqarrar halokatdan, xastalik va chorasisizliqdan “xalos” etganini, eng og‘ir sharoitlarda “rahnamatlik” qilganligini ta’kidlaydi. Otasi Axsida bevaqt, 39 yoshida fojiali halok bo‘lgach, oilaning katta farzandi, 12 yoshli Bobur valiahd sifatida taxtga o‘tiradi (1494 yil iyun). Movarounnahr 15-asr oxirida o‘zaro nizolashayotgan temuriy shahzodalar yoki mulkdor zodagonlar boshchilik qilib turgan, deyarli mustaqil bo‘lib olgan ko‘pdan-ko‘p viloyatlarga parchalanib ketgan edi. Movarounnahr taxti uchun kurash avjga chiqqan, turli siyosiy fitnalar uyushtirilmoqda edi. Buning ustiga Umarshayx Mirzoga tobe bir necha bek va hokimlar yosh hukmdorga (Boburga) buysunishdan bosh tortadilar. Ularning ayrimlari Boburning ukalarini yoqlasa, ba’zilari mustaqillik da’vosini qiladi, yana boshqa birlari Boburga raqib, boshqalari amaki, tog‘alariga qo‘silib, uni jismonan yo‘qotish payiga tushadi. O‘z amakisi va tog‘asi bo‘lmish Sulton Ahmad Mirzo bilan Sulton Mahmudxon xurujlarini daf qilgan Bobur hukmronligining dastlabki 2—3 yilda mavqeini mustahkamlash, bek va amaldorlar bilan o‘zaro munosabatni yaxshilash, qo‘sinni tartibga keltirish, davlat ishlarida intizom o‘rnatish kabi muhim chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Boburning dastlabki siyosiy maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti, strategik va geografik jihatdan muhim bo‘lgan Samarqandni egallash va Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlatni saqlash, mustahkamlash hamda Amir Temur sultanatini qayta tiklashdan iborat edi.²

Chunonchi, Bobur o’zi bo‘lgan hududlarda, xususan, Afg‘onistonda bir fotih sifatida emas, balki shu yurt, el obodonligi va ravnaqi uchun jon kuydirgan tadbirli hukmron sifatida qizg‘in faoliyat ko‘rsatdi, uning manfaatlari yo‘lida odilona va oqilona ish tutdi. Afg‘onistondagi amaliy faoliyatiga ko‘ra, Bobur butun Xuroson va Movarounnahrda qudratli davlat boshlig‘i va muzaffar sarkarda sifatida katta obro‘ orttira bordi, mintaqadagi siyosiy hayot e’tiborli o‘ringa ko‘tarildi.

² <http://wikipedia/Babur> et mongoles/empire de Babur
<http://ziyonet.com/bobur> va boburiylar/

1.1. Bobur va uning “Boburnoma” asari G’arb nigohida.

Zahiriddin Muhammad Bobur teran fikrli, shoh va shoir hamda adolatpeshalikning timsoli bo’lgan. Bu uning «Boburnoma» asarida va tarixchilar keltirgan qator faktlarda bu o’z aksini topgandir. Shu o’rinda shuni ham aytish kerakki, “Boburnoma”ga qadar Hindiston hech qachon bunchalik chuqur o’rganilmagan va u hind olimlariga mamlakat tarixini o’rganishga katta yordam bergen. Hindistonda 300 yildan ortiq hukmronlik qilgan «Boburiylar sulolası»ning «Buyuk mo‘g‘ullar»³ nomi bilan atalishi Yevropa tarixchilarining xatosidir. Shuni ta’kidlash kerakki, Boburiylar sulolasidan oldin ham, undan keyin ham Hindiston tarixida bu qadar qudratli davlat barpo etilmagan.

Zahiriddin Muhammad Bobur bejizga shoh va shoir, ulug’ mutafakir deya ulug’lanmaydi. U o’zining qisqa mazmunli hayoti davomida buyuk ishlar qila olgan. O’zining o’z guvohligiga ko‘ra, shoir sifatida ijodiy faoliyati Samarcandni ikkinchi marta egallagan vaqtida boshlangan; «Ul fursatlarda biror-ikkirar bayt aytur edim», deb yozadi. Bobur Samarcanddalogining ilk oylarida Alisher Navoiy tashabbusi bilan ular o’rtasida yozishma boshlanadi. Bobur atrofida ijodkorlar to‘plana boshlashi ham shu yillarga to‘g‘ri keladi. Jumladan, Binoiy, Abulbaraka va Bobur o’rtasidagi ruboiy mushoirasi – Samarcanddagi qizg‘in adabiy hayotdan darak beradi. Umuman, davlat arbobi va ko‘p vaqtি jang-u jadallarda o’tgan sarkarda sifatida ijtimoiy faoliyatining eng qizg‘in davrida ham, shaxsiy hayoti va davlati nihoyatda murakkab hamda xatarli sharoitda qolgan chog‘larida ham Bobur ijodiy ishga vaqt topa bilgan, ilm, san’at va ijod ahlini o’z atrofiga to‘plib, homiylik qilgan, ularni rag‘batlantirgan.

O‘tmish adabiyoti va tarix, musiqa va san’atdan yaxshi xabardor bo‘lgan, diniy ta’limotga chin ixlos qo‘ygan Bobur har doim olim-u fozillar davrasida bo‘ldi. Xususan ijod ahliga, kasb-u hunar sohiblariga samimiyoq ehtirom ko‘rsatib homiylik qildi. Ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirib turdi. Ijod va san’at ahliga bunday

³ <http://wiktionnaire/grands> mongols

mehrli munosabat aslo bejiz bo‘lman. Bobur tabiatan ijodkor edi. Yigitlik yillaridan boshlab to umrining oxirigacha samarali ijodiy ish bilan shug‘ullandi, har qanday sharoit va vaziyatlarda ham ijoddan to‘xtamadi, natijada, har jihatdan muhim boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi.

Hindiston yurishlari davri (1521)da Bobur «Mubayyin» asarini yaratdi. Masnaviy tarzida yozilgan, islom huquqshunosligi va shariat aqidalariga bag‘ishlangan bu asarda Movarounnahr va Hindistonga oid o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bo‘yicha qiziqarli ma’lumotlar ham jamlangan. Valiahd Humoyun va Komron Mirzolarga dasturulamal sifatida mo‘ljallangan «Mubayyin»da, ayni zamonda, namoz, zakot va haj ziyorati to‘g‘risida ham shar‘iy mezonlar bayon qilingan. Shu yillarda Bobur Sharq she’riyatining asosiy masalalaridan biri aruz vazni, uning nazariyasi va amaliyotiga oid ilmiy risolasini yakunlaydi. Bobur nomini dunyoga mashhur qilgan shoh asari «Boburnoma» ustidagi ijodiy ishini 1518—1519 yillarda boshlagan⁴.

Boburning yuqorida keltirilgan asarlaridan tashqari, «Xatti Boburiy», shuningdek musiqa san’ati va harb ishlariga maxsus bag‘ishlangan qator risolalari ham bo‘lgan. Ammo keyingi ikki asar matni hanuz topilgan emas. «Xatti Boburiy»da muallif arab alifbosini tahrir etib, yozuvni soddalashtirish va osonlashtirish maqsadida uni turkiy til va talaffuz mezonlariga moslashtirgan.⁵

Zahiriddin Muhammad Boburning shaxsi, uning hayoti va faoliyati, insoniy fazilatlari va jahon faniga qo’shgan hissasi beqiyosdir. Unga va avlodlariga bag‘ishlab ko‘plab ilmiy-tarixiy, badiiy asarlar yaratilgan. Ta’bir joiz bo’lsa, jahon tarixnavislik ilmida “Eng ko‘p va xo‘p” o’rganilgan vatandoshimiz ham Boburdir. Bobur haqida asar yaratgan bir necha o’nlab chet ellik mualliflarning nomlarini sanab chiqish mumkin. Jumladan, 1995-yili ingliz tarixchisi U.Erskinning “Bobur Hindistonda” asari, hind tarixchisi L.P.Sharmaning 1988-yili Dehlida bosilgan

⁴ <http://L'histoire des rois de l'Orient/Babur>

⁵ O’zbekiston Miliy ensiklopediyasi/ “B”, “X” harflari

“Boburiylar sultanati” asari, amerikalik olim S.M.Berkning “Akbarshoh – boburiylarlarning eng buyugi” (Berk Akbarshoh shaxsiyati va faoliyati misolida Hindistonga Bobur asos solgan, jahon tarixiga, “Buyuk mo’g’ul imperiyasi” nomi bilan kirgan sultanatning mustahkam tomir yozish jarayonini tasvirlaydi) asarlarida Boburga zamondosh tarixchilarning qo’lyozmalari, Hindiston tarixiga oid tadqiqotlar, XX asrning jahonga mashhur olim va tarjimonlarining asarlarida Boburning butun hayot yo’li, bolalik, o’spirinlik, yigitlik yillari, tashvishli kunlari, hukmronlik faoliyati, diniy-falsafiy qarashlari, davlatni boshqarish usuli, madaniyat va san’atga munosabati singari masalalar tasvirlangan. Amerikalik tadqiqotchi Berk Boburga bergan qisqa va lo’nda tavsiflarida ulug’ siyemoning hayot yo’li, davlatchilik tarixidagi xizmatlari va shaxsiyatidagi eng muhim jihatlarni muxtasar tarzda yoritishga erishgan. Muallif Boburning hukmronlik siyosati xususida shunday yozadi: “Boburshohning fikricha, fotihlik va hukmdorlik ishida yuz ming usul qo’llasa ham haq va zarur hisoblanadi. Biroq bosib olingan yerkarni, ayniqsa, bu o’lkalarni o’z sultanati tarkibiga kiritish rejalashtirilgan bo’lsa-da, u g’olib askarlar mag’lublar mulkini talon-taroj qilishiga mutlaqo yo’l qoymasdi”. “Boburnoma” haqidagi fikrlar ham diqqatga sazovor: “Men bor haqiqatni yozdim”, deydi muallif va haqiqatan ham u o’zining kamchiliklari, omadsizlikka olib kelgan noto’g’ri xatti-harakatlarini o’quvchidan yashirmaydi”.

“Boburnoma” qomusiy mazmundagi kitob, unda O’rta Osiyo, Afg’oniston, Hindiston xalqlarining tarixiy, ijtimoiy-siyosiy hayoti, turmush tarzi, shu mamlakatlar geografiyasi, o’simliklari va hayvonot dunyosi to’g’risida juda ko’p ma’lumot keltiriladi: XV-XVI asrlarda yashagan bir qancha shaxslarning xarakteri chizib beriladi, tarixiy voqealarning jonli tasviri yaratiladi. Kitobda Boburning hayoti, atoqli sarkarda va zabardast adib sifatidagi ziddiyatli va shiddatli hayoti va kechinmalari yorqin ifoda etilgan. “Boburnoma” o’z xarakteri bilan faqat turkiy tildagi tarixnavislik –memuarchilikda favqulodda yangi hodisa bo’lib qolmay, balki, Sharq madaniyati tarixida ham ajoyib yangilik, nodir adabiy obida sifatida ardoqlangan. Shu sababli XVI asrdayoq bir necha marta fors tiliga, keyinchalik

Yevropa xalqlari tillariga qayta-qayta tarjima qilindi, nashr etildi, bat afsil o'rganildi.

Ammo bu sohani yaxlit, chuqur o'rgangan ilmiy tekshirish ishi hali amalga oshirilmagan. Tarjimalarning paydo bo'lisi, saviyasini aniqlash, ularni o'zaro qiyosiy tahlil qilish orqali ilmiy qiymatini belgilash "Boburnoma" o'zbek xalqining jahondagi boshqa xalqlar bilan adabiy –madaniy aloqalarni o'rganish nuqtai nazaridan ham juda muhimdir. Zero, "Boburnoma" dunyo sharqshunoslari yakdillik bilan qayd qilganidek, insoniyat madaniyatiga qo'shilgan katta ulush hisoblanadi.

"Boburnoma"ni fors tiliga tarjima qilishning birinchi tashabbuskori Boburning o'zi bo'lib, u hayot vaqtidayoq o'z asarini fors tiliga tarjima qilishlarini so'ragan edi. Bu orzu amalga oshirildi. Hozir "Boburnoma" ning to'rtta forsiy tarjimasi ma'lum. Bu ishga birinchi bo'lib qo'l o'rgan kishi "Shayx Zaynuddin shayx Zayndir. Shayx Zayn Boburning mirzasiga bo'lgani uchun, uning farmonlarini o'z tarjimasiga ilova qilgan. 2014 yil aprel oyi Samarqand shahrida o'tkazilan "O'rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizasiyasi rivojidagi ahamiyati va roli" mavzuyiga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada Yurtboshimiz Islom Karimov Boburning "Boburnoma" asarini arab tiliga tiliga tarjima qilgan Qohira universiteti o'qituvchisi Magida Maxluf xonimga o'z tashakkurini bildirdi. Shu o'rinda tan olish kerakki, har qanday yurtning fozil insonlari, olimlari-yu adolatparvar shohlari bo'lar ekan, bu diyor barchaning e'tirofiga sazovor bo'ladi⁶. Xususan, Eduard Xolden Boburning ijodini o'rganar ekan: "Bobur fe'li, sajiyasiga ko'ra, Sezarga qaraganda sevishga arzigelikdir", degan xulosaga keladi. "Boburnoma" esa butun dunyoda XVI asr uchun misli ko'rilmagan adabiy, ilmiy va insoniy kashfiyot sifatida e'zozlanadi. Boburdan oldin badiiy adabiyotda hech bir shoh va sho'ir o'z ko'rgan-kechirganlarini, yutuq va kamchiliklarini bu qadar haqqoniy hamda dadillik bilan bayon qilmagan. Hind olimlari "Boburnoma"ni ulug' fransuz adibi

⁶ <http://ziyonet.com> va google.ru / ajdodlar merosi

Jan-Jak Russoning “Iqrori”ga qiyos qiladilar.⁷ Erishgan yutuqlarini bayon qilish bilan birga qilgan xatolariga ham iqror bo’lishdek ma’naviy jasoratni Bobur bobomiz Russodan ikki asr ilgari ko’rsatganini qiyosiy tahlil etsak, buyuk ajdodimizning o’z davriga nisbatan qanchalik oldinga ketganidan hayratga tushamiz.

Istiqlol yillarida buyuk ajdodlar nomlarini abadiylashtirsh bo'yicha qator amaliy ishlar qilindi. Yurtboshimiz farmoniga binoan istirohat bog'lari va ko'chalarga Bobur nomi berildi. Yurtimizda hali mustabid tuzum hukm surayotganiga qaramay 1-Prezidentimiz Islom Karimov tarixiy haqiqatlarni tiklashga kirishgani juda ulug'vor ishlarning boshlanishi bo'ldi. Ma'lumot o'rnida aytish mumkinki, 1989-yilda “Boburnoma” kitobi 200000 nusxada chop etilgan bo'lsa, 1990-yil oktabr oyida bu shoh asar yaratilganligining 460 yilligi nishonlandi⁸. Yurtboshimiz: “Avvalo, ulug' vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburning shoh asari bo'lmish “Boburnoma” yozilganligining 460 yilligini keng nishonlayotganimizdan xursandmiz. Bu bayram ayni paytda Sharq xalqlari tarixi va adabiyotiga beqiyos hurmat va muhabbatni ifoda etadi”⁹ degan edilar.

“Boburnoma”ning badiiy qimmati haqida” kitobining muallifi S. Jamolovning yozishicha, asarning asl matnda birinchi marta rus sharqshunos olimi N. I. Il'minskiy tomonidan Rossiya tashqi ishlar vazirligining Sharq tillari bo'limining kutubxonasida saqlanayotgan va 1737-yilda Kerr tomonidan ko'chirilgan qo'lyozma asosida 1857-yilda Qozonda to'liq nashr etilgan.¹⁰

Ushbu shoh asar Yevropa tillariga ham tarjima qilingan. “Boburnoma”ning franzus tarjimonи Pave de Kurtey Abdurahimxon ishi haqida bunday yozgan edi: “Fors tiliga qilingan tarjima ko'pincha kitobxonga katta qiyinchilik tug'diradi. Uning uslubi, ayniqsa, turkiy so'zlarning ko'pligi, gohida to'lig'icha keltirilgan turkiy she'rlar, e'tiborsizlik fors kitobxonini qiyin ahvolga solib qo'yadi”. Aslini

⁷ Le Livre de Babur/introduction/page 35

⁸ <http://google.uz/Bobur> haqida

⁹ <http://kun.uz> va daryo.uz/ma'naviy merosdan

¹⁰ S. Jamolov. “Bobirnoma”ning badiiy qimmati haqida” Vypusk XXV, page 5, Tashkent 1961 *Baber namah. Diagataice ad fidem codicis Petropolitani. Edit H. Ilminski, Qazan, 1857.*

olganda, talay terminlar, harbiy so'zlarni sal turkcha holida berishga tarjimon majbur bo'lgan edi, negaki "Boburnoma" dagi ko'pgina so'zlar, iboralar, istilohlarning sof forsiy muqobilini topish mushkuldir. Abdurahimxon tarjimasi asarnig Sharqda keng tarqalishiga yo'l ochdi va Yevropa sharqshunoslarining diqqatini jalb etdi. Mazkur tarjimaning chiroyli ,miniatyurlar bilan bezatilgan nusxalari London, Parij, Leningrad, Kalkutta kutubxonalarida saqlanmoqda.

"Boburnoma" 1912 yilda Tog'aymurod Qarluqiy tomonidan to'rtinchi marta fors tiliga o'girildi. Bu tarjimaning bir nusxasi Aburayhon Beruniy nomidagi O'zbekiston FA Sharqshunos instituti qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda.

Yevropa ilmi ahliga "Boburnoma"ni birinchi marta tanishtirgan olim Vitsen bo'lgan. U 1705-yilda asardagi Farg'ona vodiysi geografiyasiga oid tasvirlarni tarjima qilib, Amsterdamda nashr ettiradi.¹¹ Biroq Boburning Yevropadagi chinakam shuhrati roppa –rosa yuz yildan keyin XIX asr boshlarida qaror topdi. Bu ishda ingliz sharqshunoslaring xizmati katta bo'ldi. Ular asarni tarjima qilib, nashr ettirishdan tashqari, uni tadqiq etish, Bobur hayotini, shaxsiy qobiliyatlarini Yevropa tadqiqotchilarini hayratda qoldirgan edi. Bobur siymosida ular ulkan sarkarda, mohir davlat arbobi, dilbar va dilkash insonni ko'rdilar.

Tarixshunos Elfinston Boburni "Sharqning Yuliy Sezari" deb ataydi. Leyn Puul bo'lsa: "o'z portretini chizishdagи samimiylilik, fazilat va kamchiliklarini haqqoniy tasvirlash, ochiq ko'ngillilik va rostgo'ylik "ni Boburning ajoyib xislati deb tariflaydi. "Boburnoma" tarjimoni Erskin esa bunday yozadi: "Bobur xarakterining mislsiz belgisi uning boshqa mul dorliklarnikiga o'xshamasligidir. Osiyo tojdorlaridagi dabdaba , sun'iy xarakter o'rniga bizning ko'z oldimizda Boburning xarakteri tabiiy, hayotni sevuvchi, samimiylilik bo'lib gavdalaniadi. Bobur taxtda o'tirishiga qaramay, oddiy turmushning eng yaxshi tuyg'ularini va ishtiyoqini o'zida saqlab qoldi. Osiyo hukmdorlari orasida Bobur singari genial va talantli kishilar kamdan-kam uchraydi. Uni aqlning aktiv faoliyati, xushchaqchaq sovuqqonlik va bevafo taqdirning nayranglariga qaramay ruhining tetikligi,

¹¹ <http://fledu.uz/jurnal/2013/2>

saxovati va mardligi fanga, san'atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatlil shug'ullanishi kishini hayratda qoldiradi.

Boburdagi bunday fazilatlar avvalambor uning genial asari “Boburnoma”da aks etgandir. “Boburnoma” Osiyoda yagona, chinakam tarixiy tasvir namunasidir. Bobur har bir odamning tashqi ko'rinishi, kiyimi, ta'bi-odatini ifoda etadi va mamlakatlarni ularning iqlimi, peyzajini, xo'jaligini, san'at va hunarmandchilik asarlarini tasvirlab beradi. Lekin asarga muallif xarakterining o'zi eng ko'p joziba baxsh etgan”, deb yozadilar I. K. Singh va U.Benderdji.

“Boburnoma”ni ingliz tiliga tarjima qilgan Jon Leyden va Vilyam Erskinlar bir-biridan bexabar holda ish boshlagan edilar. B. Erskin fors adabiyoti bo'yicha bir qancha tadqiqotlar muallifi , Britaniya muzeyidagi ko'pgina qo'lyozmalarini to'plagan va o'rgangan atoqli sharqshunos edi, doktor Leyden esa fors tildan tashqari yana eski o'zbek tilini va hind tilini o'zlashtirgan bilimdon shaxs bo'lган. Har ikki tarjimon ham “Boburnoma” bilan Hindistonda tanishganlar va uni o'sha yerda tarjima qilishga kirishganlar.

B.Erskin Abdurahimxonning forsiy nusxasi asosida tarjimani 1811 yildan boshlab, 1817-yilda oxiriga yetkazdi. A. S. Bevirij xonim aytganidek, Erskin “yevropalik boburshunoslар ichida pioner edi”, u “dunyo kitobxonlari” oldida katta xizmatni ado etdi. Biroq, Erskin tarjimani nashr ettirishga shoshilmaydi, bu orada u doktor J. Leyden ham “Boburnoma”ni inglizchaga o'girganini eshitib qoladi va bu tarjima bilan tanishishga oshiqadi.¹²

J.Leyden bevaqt vafot etib, tarjima oxiriga yetkazilmay qolgan. Erskin Leyden tarjimasini qo'lga kiritib, o'ziniki bilan solishtirib chiqish maqsadida, Londonga xat yozadi. Leyden tarjimasining o'zinikidan katta farqi borligini ko'rgan Erskin hayron qoladi; nima qilganda ham, Leyden originaldan o'girgan edi-da! Erskin tarjimalarni batafsil solishtirib, ish davomida konstekstga mos kelmaydigan joylarni tuzatib, puxtalab boradi.

¹² O'sha manba: <http://fledu.uz/jurnal/2013/3>

Sharqshunos Lord Jefrey deydi: “Erskin o’z tarjimasiga ajoyib hoshiyalar ilova qilgan, tekst ostidagi tushuntirishlarni ham mohirona ham shoirona bajargan”. Elfinston esa tarjimaning puxtaligi haqida to’lqinlanib bunday yozgan edi: ”Tarjima xuddi originaldagи singari uslubi jozibador, xuddi asliga qarab rasm olganday”. Shunday qilib, V. Erskin J.Leyden tarjimasini qayta ishlab chiqib, ishni oxiriga etkazadi va “Boburnoma” Leyden-Erskin tarjimasi nomi bilan 1926 yilda Londonda chop etiladi. Ayniqsa, tarjimaga yozilgan kirish so’z va muqaddima qismlari juda katta ilmiy qiymatga molikdir. Bundan kitobxon “Boburnoma”ga oid qiziqarli materiallar, tanqidiy tekst tuzish uchun olib boriladigan izlanishlar, qadimiylar ishonchli nusxalar, “Boburnoma” bilan shug’ullangan sharqshunos olimlar to’g’risida keng ma’lumot olish mumkin. Erskin bu nodir asarni tiklashda ko’p manbalarga suyangan. Hofizzon Muhammad Hoshim, Henri Rassel, Vilyam Mayl kabi sharqshunos olimlarning kitoblaridan, ayniqsa, E. Davning “Boburning hayoti” va sharqshunos Jon Brig bergan maslahatlaridan unumli foydalanilgan. Lekin asosiy yordamni u tarixchi Elfinstondan olgan. Shu tariqa u katta qiyinchiliklarni yengib, butun aqlu-zakovatiini ishga solib, “Boburnoma”ning inglizcha variantini vujudga keltirdi. O’zbek nasrining XVI asrdagi betakror go’zal namunasi bo’lgan “Boburnoma” ko’plab sohalarga doir bilimlarni qamrab oladi. Unda muallif o’z ko’zi bilan ko’rgan, eshitgan real voqeа va hodisalarini ishonchli manbalarga asoslangan holda keltirgan. Bu haqda Bobur mirzoning o’zi bunday deydi: “Bu bitilganlardin g’araz shikoyat emas, rost hikoyatturkim, bitibturmen. Bu mastur bo’lg’onlardin maqsad o’zning ta’rifi emas, bayoni voqeи bu edikim, tahrir etibturmen. Chun bu tarixda andoq iltizom qilibturkim, har so’zning rostini bitilg’ay va har ishning bayoni voqeini tahrir etilgan”¹³.

“Boburnoma”dagi ma’lumotlar shu qadar ishonchliki, undan keyin yaratilgan mashhur “Haft iqlim” va Ravzatu-l-jannat”dagi butun-butun boblar (masalan, Qobul va Qandahorga bag’ishlangan) “Boburnoma”ga to’liq mos keladi, ya’ni undan olinganligi aniq. Mirzo Bobur keltirgan ma’lumotlarning aniq va

¹³ <http://yahoo/com/rois> de l’Orient et l’Hindi/Babur

ishonchligini XX asr boshida Afg'oniston haqida tadqiqot olib borgan rus olimlarining axborotlari ham tasdiqlaydi.

V.V.Bartold o'zining mashhur “ ” nomli asarida “Boburnoma”dagi ma'lumotlarga yuksak baho berib yozadi: “...jug'rofiy tasvirlar, masalan, Farg'ona hamda Samarkand va uning tevarak-atroflari tasviri haqli ravishda qadimiy deb tan olinadi” . XVI asr tarixi, madaniyatini, o'rganishda “Boburnoma”ning ishonchli manba ekanligini yana bir qator mutaxassis ham ta'kidlagan.¹⁴

Asarda Hindiston chuqur bilimdonlik bilan shu qadar aniq tasvirlanganki, “Hindiston haqida Abu Rayhon Beruniydan keyin hech bir o'zbek olimi bunday mukammal asar yaratmagan edi”. “Hindiston” asaridagi ma'lumotlarni faqatgina “Boburnoma”dagi ma'lumotlar bilan solishtirish mumkin, xolos.

Shu aytilganlarning o'zidanoq “Boburnoma”ning mislsiz qomusiy asar ekanligi ayon bo'ladi. Yuz yillar davomida turli xalq va elatlar tomonidan mazkur kitobning atroflicha va chuqur tadqiq etilishi, tarjima qilinishi hamda qayta-qayta nashr etilishi, jahon xalqlarining bu asarga qiziqishining tobora ortib borayotganini bildiradi. “Boburiylar o'zlarini Temuriylar davri madaniyatining merosxo'ri, davomchilaridan deb bildilar. Movaraunnahr va Xurosonda Temuriylar davlatini taraqqiyatparvar mohiyatini bиринчи bo'lib ochib bergen I. M. Mo'minov boburiyzodalar haqida bunday deb yozgan:“...ayniqsa, Hindistondagi Bobur va Akbarshohlar O'rta Osiyoda Temur davrida qaror topgan ekonomika va madaniyatni rivojlantirish bilan bog'liq eng yaxshi traditsiyalarni davom ettirdilar”.

Yevropa tarixiy manbalarida va uning ta'sirida Sharq mamlakatlari, xususan Hindiston va Pokistonda hamda Rossiyada Boburiylar sultanatini “Buyuk Mo'g'ullar imperiyasi” deb atash bir udumga aylangan. Boburiylarga nisbatan ushbu nomning xato ekanligini olimlar allaqachon isbotlab bergenlar. “Buyuk mo'g'ullar” degan ibora Chingizzon va undan keyingi mo'g'ul xoqonlari (Uktoy

¹⁴ <http://google.ru/Boburnma> haqida

qoon, Guyuk qoon, Munka qoon)ga taalluqli bo'lib, Boburiylar aslida Zahiriddin Muhammad Bobur avlodlaridir”

V.V.Bartold ham mazkur nom haqida bunday degan: “Yevropaliklar Temurni va uning o'g'illari hamda nabiralarini mo'g'uldan tarqalgan deb hisoblab, Bobur sultanati uchun “Buyuk mo'g'ullar” degan nom to'qidilar”.

Samoylovich esa Bobur Mirzoni “buyuk turkiy” deb atagan. Boburiylar sulolasiga haqida risola muallifi J. Yusuf ham “Boburiylarning mo'gul deb atalishi ajib bir tasodifdir” deydi. Taniqli adabiyotshunos Ibrohim G'afur esa boburiylar mo'g'ul emaslar, bu “...tarixiy anglashilmovchiliklardan bittasi” deb aytgan edi. Hozir olim va adiblarning sa'y-harakatlari tufayli tarixiy haqiqat tiklandi, deb aytish mumkin hamda buyuk ajdodlarimiz endi “Boburiylar” deb, ular asos solgan sultanat esa “Boburiylar sultanati” deb atalmoqda.

1.2. “Boburnoma”ning fransuzcha tarjimasi xususida.

“Boburnoma”da haqida gap ketganda, undagi tabiat tasvirlari, Markaziy Osiyo, Afg’iston va Hindiston xalqlarining tarixiga oid nodir kuzatishlar, tilga, dinga, huquqshunoslikka, san’at va adabiyotga oid tadqiqotlar Bobur Mirzoning qomusiy bilimlar egasi bo’lganini ko’rsatadi. Tarixdan ma’lumki, ko’hna Sharq adabiyotida nasrda qalam tebratish favqulotda hodisa edi. Asarlar asosan, nazmda yaratilgan. “Boburnoma” asari bilan Bobur narsning imkoniyatlarini yuksaklikka ko’tardi. Undagi voqealar bayoni aniq va lo’nda, ta’sirchan, muhimi tarixga muvofiqligi bilan e’tiborlidir. “Boburnoma” badiiy hamda ilmiy asar. Badiyili shundaki, unda nima haqida so’z yuritsa, Bobur badiiy ifodalardan foydalangan hamda ularni ilmiy jihatdan asoslangan. Bu asar fanning juda ko’p tarmoqlari uchun g’oyat katta qimmatga ega bo’lgan manbadir. “Boburnoma”ning eski o’zbek yozuvidagi qo’lyozma nusxalari 13-14 tagina bo’lib, ular dunyoning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanadi.

“Boburnoma” Zahiriddin Muhammad Bobur nomini butun jahonga tanitgan qomusiy shoh asardir. U nafaqat o’zbek adabiyotida, balki jahon adabiyoti tarixida ham munosib o’rin egallab kelmoqda. “Boburnoma” tarixiy-badiiy asar sifatida turkiy xalqlar narsining ilk namunalaridan biri sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu asar nodir tarixiy manba bo’lishi bilan birga, ilm-fanning turli sohalarini qamrab oluvchi qomusiy kitob hamdir. Unda Bobur yashab ijod qilgan davrning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti badiiy shaklda o’zining yorqin ifodasini topgan; voqealar qiziqarli, ravon va sodda tilda bayon qilingan. “Boburnoma” yozuvchi xotirotlari, esdaliklaridan tashkil topgan. Shu sababdan uning asl nomini muallifning o’zi “Vaqoyi’noma”, ya’ni “Voqealar kundaligi” deb atagani bejiz emas. Chunki bu voqealarning asosiy ishtirokchisi va bosh qahramoni Boburning o’zi ham bu haqda shunday deb yozadi:

Bu olam aro ajab alamlar ko’rdum,

Olam elidin turfa sitamlar ko’rdum.

Har kim bu “Vaqoyi”ni o’qur, bilgaykim,

Ne ranju mehnatu ne g’amlar ko’rdum.

Bu asar boshqa manbalarda “Voqeoti Boburiy”, “Tuzuki Boburiy”, “Tavorixi Boburiy”, “Boburiya” kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Keyichalik esa uni “Boburnoma” deyish rasm bo‘lib qolgan.

“Boburnoma” ning yaratilish tarixi haqida olimlar turli fikrlarni bildirishadi. Kitobni bir karra varaqlab chiqqan o‘quvchi bo‘lajak ayrim voqea va hodisalar oldindan bayon etilganligiga guvoh bo‘ladi. Bu esa, asar Bobur hayotining so‘nggi yillarida yozilganligidan dalolat beradi. Olimlarning aksariyat qismi “Boburnoma” Yozuvchi hayotining oxirgi yillarida, aniqrog‘i, 1525-1530 yillarda yozilgan, degan fikrni qo‘llab-quvvatlaydilar. Asarda 1494-1530-yillarda Movarounnahr, Xuroson, Afg‘oniston va Hindistonda ro‘y bergen tarixiy voqealar Bobur hayoti bilan chambarchas bog‘langan holda bayon etiladi. “Boburnoma” 12 yashar Boburning otasi Umarshayxning vafotidan so‘ng Farg‘ona viloyatiga podsho bo‘lganidan boshlanib, to umrining oxirigacha ro‘y bergen voqea va hodisalarni o‘z ichiga qamrab olgan. Afsuski, bu asar qo‘lyozmalarining bizgacha yetib kelgan nushalarida Bobur xotiralarining 1509-1518, 1521-1524, 1529-1530-yillardagi voqealari yo‘qolgan. Lekin shunga qaramay, Bobur kundaliklari o‘zining tuzilishi va g‘oyaviy yo‘nalishi nuqtayi nazaridan bir butun asarligicha saqlanib qolgan. “Boburnoma” asosan uch qismga bo‘lingan. Birinchi qismda Boburning Movarounnahrdagi podsholigi bilan bog‘liq voqealar, ona zamin tabiatini va uning ne’matlari, otasi Umarshayxning nasl-nasabi, oilaviy hayoti, yurish-turishlari, saroydagagi mansabdor tarixiy shaxslar, ularning o‘rni va faoliyati, xususan, ilm-fan, san’at hamda adabiyot namoyondalari haqida qimmatli ma’lumotlar bayon qilinadi.

Bu davrda Bobur Samarcandni davlatning markazi qilishga harakat qiladi, shu maqsadda bir necha bor uni ishg‘ol ham qiladi. Biroq uning maqsad va harakatlari turli sabablarga ko‘ra amalga oshmaydi, shuning uchun Bobur o‘zga yurtga qarab yuzlanishga majbur bo‘ladi. “Boburnoma”ning Movarounnahr davri tavsifida turli toifadagi, tabaqadagi kishilarning hayoti, shahar va qishloqlarning manzarasi, nabotot va hayvonot olami, ob havosi, aholisi va ularning etnogenezi, tili, urf-odatlari hayotiy qilib tasvirlanadiki, natijada o‘quvchi Boburning

donishmandligiga qoyil qoladi. Muhimi, Bobur haqiqatni gapirganida hech kimni ayamaydi. Har qanday voqealari yuz bermasin, har qancha ulug' martabali yoki mansabdor shaxs haqida gap bormasin, u voqealari hodisalarga, kishilarning yurish-turishlariga, ularning insoniy xislatlariga haqqoniy baho beradi. "Boburnoma"da yozuvchi Farg'on, Andijon, Samarqand, Toshkent viloyatlaridagi shaharlarning tarixi, ular atrofidagi tabiatning go'zal manzaralari, oqar suv va chashmalari, umuman ona zaminni shunchalik joziba bilan tasvirlaydiki, bular Bobur iqtidori va ona yurtga bo'lgan kuchli muhabbatining haqiqiy inikosidir.

"Boburnoma"ning ikkinchi qismi Afg'onistonning voqealar bilan bog'liq, asarda Bobur qanday qilib Kobul va uning atrofidagi yerlarni bosib olgani, afg'on qabilalarini bo'ysundurib, yangi davlat barpo etganligi to'g'risida ehtiroslarga to'lib gapiriladi. Bobur Afg'onistonning ayniqsa, xushhavo Kobul manzarasini maroqli va jozibali badiiy til bilan hikoya qilar ekan, uning tasvirini turli qiziqarli sarguzasht, rivoyat va o'zining o'tkir mushohadalari bilan yaratilgan she'riy lavhalar, rang-barang badiiy vositalar bilan bezaydi. Natijada Bobur esdaliklari kitobxonning diqqatini o'ziga beixtiyor jalb etadi va o'quvchi asarning qahramoni-Bobur bilan birgalikda voqealarda qatnashayotgandek sezadi o'zini. "Boburnoma"ning yuksak badiyligi ham ana shundadir. Masalan, Bobur Kobul viloyatining aholisi haqida gapirar ekan, uni shunday ta'riflaydi:

"Muxtalif aqvom Kobul viloyatida bordur. Julgasida va tuzlarida atrok va aymoq va a'robdur. Shahrida va ba'zi kentlarida sortlardur. Yana ba'zi kentlarida va viloyatida pashoyi va paroji va tojik, baraki va afg'ondur. G'arbiy tog'larida hazora va nakdariylar. Bularning orasida ba'zi mug'uliy til bila hikoyat qilurlar... O'n bir-o'n ikki lafz bila Kobul viloyatida talaffuz qilurlar... Muncha muhtalif aqvom va mug'ayyir alfoz ma'lum emaskim, hech viloyatta bo'lg'ay" (Boburnoma, 189-bet). Bobur Kobul manzarasining bahor faslida mislsiz go'zalligini tasvirlar ekan, unga bo'lgan muhabbat, ehtiroslarini quyidagi misralarda to'lqinlanib ifoda etadi:

*Sabzayu gullar bila jannat bo'lur Kobul bahor,
Xossa bu mavsumda Boron yozisiyu Gulbahor.*

Bu misralar bilan shoir Kobulga bo‘lgan dildagi muhabbatini ifodalagan bo‘lsa, uning vafotidan so‘ng hokini Kobuldagi o‘zi yaratgan bog‘ga qo‘yishlarini istab farzandlariga qoldirgan vasiyati esa Bobur bu shaharni naqadar sevishining amaldagi isbotidir, deb qaramoq kerak. Quyida kelajak satrlarda bu misollarning fransuzcha talqini va qiyosiy sharhlari bilan tanishiladi.

U tarixchilar, geograflar, shoir va olimlarning diqqatini o‘ziga tortadi, bir necha asrlar davomida kitobxonlarning sevimli asariga aylandi. Bobur hayoti va ijodi Fransiyada ham keng o‘rganilgan bo‘lib, Fransiya ilm ahliga Zahiriddin Muhammad Bobur va “Boburnoma” haqida dastavval ma’lumot bergen fransuz sharqshunosi Bartoleme D’Erbelo (1621-1695) hisoblanadi. D’Erbelo o‘zining “Sharq kutubxonasi” (La Bibliothèque Orientale. Paris, 1967) qomusidagi “Bobur yoki Bobar” nomli maqolasida Boburning hayoti, uning davlati va sarkardalik mahorati, adabiyot va san’atga qiziquvchi ilg’or fikrli kishi bo’lgani haqida ma’lumot beradi.¹⁵

XIX asrga kelib Yevropa, xususan, fransuz sharqshunosligida Bobur merosini o‘rganish, uning asarlarini tarjima qilish borasida yangi davr boshlandi. Ayni shu yillarda Boburning ulkan asari “Boburnoma”ni fransuz tiliga tarjima qilish, uning matn xususiyatlarini o‘rganish, siyosiy-tarixiy ahamiyatini baholashda fransuz olimlari e’tiborga molik tadqiqotlarni yaratishdi. “Boburnoma”ni fransuz tiliga tarjima va tadqiq qilishga sharqshunos Anri Jyul Klaprot (1783-1835) birinchilardan bo‘lib harakatni boshlaydi. 1824-yil A.Klaprotning, “Sulton Bobur yohud “Boburnoma” tarixiga oid kuzatishlar” nomli maqolasi omma e’tiboriga havola etadi. Markaziy Osiyo va Sibirda yashagan xalqlar tarixi, madaniyati va adabiyotini yaxshi bilgan Klaprot Yevropa sharqshunosligida “Boburnoma” xususida ilk bor to’laqonli fikr yuritgan edi. Shundan so‘ng 1854-yili Parijda “Hozirda va qadimda yashagan tarixiy shaxslar hayoti” nomli katta kitob chop qilinadi. Mazkur kitobdan sharqshunos M.Langle (1763-1824)ning “Zahiriddin Bobur hayoti va ijodi” nomli maqolasi ham o‘rin olgan edi. Maqolada Bobur haqida avvalgi manbalarga nisbatan ancha boy

¹⁵ <http://google.ru/Baburnama> et son essentiel/

ma'lumot berilgan bo'lib, o'quvchi undan adib hayoti va ijodi to'g'risida chuqurroq bilim olishga muvaffaq bo'ladi. Boburning hayoti va ijodi fransuz kitobxonini tobora qiziqtirib borganlar. Fransuz olimlari so'nggi yillarda Bobur to'g'risida tez-tez maqolalar chiqarganlar, kitoblar nashr qilganlar.

Zahiriddin Muhammad Bobur merosini o'rganish, "Boburnoma"ni tarjima va lisoniy tarjima qilishda fransuz turkologi Anri pave de Kurtey (1821-1889)ning xizmathlari alohida tahsinga loyiq. Fransuz kolleji (College de France) turkiy tillar kafedrasи mudiri, fransuz akademiyasi a'zosi, Sankt-peterburg fanlar akademiyasi muxbir a'zosi bo'lgan Pave de Kurtey vatani Fransiyada turkologiya ilmining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi. Professor A.Pave de Kurteyning olimlik faoliyatida u tuzgan "Sharqiy-turkiy tillar lug'ati" ("Dictionnaire de turc orientale". -Paris, 1870) yohud "Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va Abulg'ozi Bahodirxon asarlarini o'qish uchun izohli lug'at" alohida ahamiyatga molikdir. Professor A.Pave de Kurteydagи bu katta tayyorgarlik, eski o'zbek tili va adabiyotidan egallagan puxta bilim uni "Boburnoma"ni tarjima qilishga undagan edi. 1871-yilda "Boburnoma"ning Pave de Kurtey tarjimasi ikki jildda nashrdan chiqdi ("Memoire de Baber". Traduit pour la première fois sur le texte djagatai par A.Pavet de Courteille, - editions, 1871). Birinchi jildda tarjimonning o'n olti sahifalik muqaddimasi berilgan. Unda "Boburnoma"ning yozilish jarayoni, kitobda keltirilgan voqealar, Boburshohning Afg'oniston va Hindistonda barpo etgan qudratli imperiyasi xususida ma'lumotlar berilgan.¹⁶

G'arblik ayrim olimlar "Boburnoma"ning bunyod bo'lishini Bobur Hindistonda hukmron bo'lgan davr bilan bog'laydilar. Fransuz tarjimonи bu haqda quyidagi fikrni aytadi: "Agar mendan "Boburnoma" qaysi davrda yozilgan deb so'rasalar, men kitob Bobur Hindistonni zabit etgandan so'ng, ya'ni 1526-yildan boshlab yozilgan va Boburshoh hayotining oxirigacha davom etgan, deb javob qilardim". Professor Pave de Kurtey bunday xulosaga kelishida, asarning dastlabki boblaridanoq, Hindiston davri voqealarining uchrab turishini nazarda tutgan edi.

¹⁶ <http://google.ru/Bobur> me'rosi

Shunday qilib, Pave de Kurtey Zahiriddin Muhammad Boburning merosini Fransiyada o'rganish va targ'ib qilishda o'zining yuksak xizmatlari bilan katta hissa qo'shdi. "Boburnoma"ning tarjimonini sifatida mashhur bo'ldi. Olim boshlagan bu tarjimonlik ishi jahon ahliga manzur bo'ldi va Bobur hayotini ko'plab olimlar tomonidan doimiy ravishda o'rganilishiga sabab bo'ldi.¹⁷

1888-yil "Osiyo jurnalı" (Journal asiatique)ning ikkinchi jildida sharqshunos Jyul Darmstetye o'zining "Kobul yozuvchilari. Boburshoh va boshqa mo'g'ul shahzodalarining qabr toshlaridagi bitiklar" nomli maqolasini e'lon qilganligi, boburiylar barpo etgan maqbaralarda bitilgan so'zlar ma'nosi bilan tanishishga yordam beradi.

Ma'lumki, Boburning "Aruz risolasi" asari o'zbek, arab va boshqa turkiy xalqlar she'riyati qonuniyatlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan qo'llanmadir. Bu asar qo'lyozmasining hozirgacha saqlanib qolganligi ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lmasligi mumkin. Qo'lyozmaning bir nusxasi Parijdagi Milliy kutubxonada saqlanib kelinayotgani haqida 1923-yil turk olimi M.F.Ko'prulizoda ilk bor ma'lumot beradi. Fransuz sharqshunosi Edgar Bloshe o'zining Parijdagi "Milliy kutubxonada saqlanayotgan qo'lyozmalar katalogi" kitobida "Aruz risolasi"ning ushbu qo'lyozmasiga alohida to'xtalib o'tgan.¹⁸

"Boburnoma"ning doktor Bak'e-Grammon tarjimasini fransuz o'quvchisining didiga yaqin saviyada amalga oshiradi. Unda Bobur hukmronligi davri Movorounnahr, Afg'oniston va Hindiston yerlarining xaritalari berilgan. "Boburnoma"ning A. J. Klaprot, A. Longper'e, M. Langle, A. Pave de Kurtey, F. Grenard, Bak'e-Grammon kabi tadqiqotchi va tarjimonlari Bobur merosining tarixiy-etnografik, bibliografik hamda lingvistik jihatdan tavsif qilish bilan Yevropada boburshunoslikning rivojiga munosib hissa qo'shdilar. Qolaversa, Zahiriddin Muhammad Boburning ilm-fan, adabiyot va san'atga baxshida boy

¹⁷ Ayni manba. <http://google.ru/Bobur> me'rosi

¹⁸ <http://ziyonet.com/Xurshid> Davron kutubxonasi

merosini to'plash, nashr etish hamda jahon miqyosida munosib baholamoq uchun yuqoridagi manbalarni e'tirof etish maqsadga muvofiqdir¹⁹.

Bu yillarda "Boburnoma"ni fransuz tiliga tarjima qilish, uning matn xususiyatlarini o'rganish, siyosiy-tarixiy ahamiyatini baholashda fransuz olimlari e'tiboriga molik tadqiqotlarni yaratishdi. "Boburnoma"ni fransuz tiliga tarjima va tadqiq qilishga sharqshunos Anri Jyul Klaprot (1783-1835) birinchilardan bo'lib kirishadi. 1824 yil A. Klaprotning, "Sulton Bobur yoxud "Boburnoma" tarixiga oid kuzatishlar" nomli maqolasi bosilib chiqadi. Markaziy Osiyo va Sibirda yashagan xalqlar tarixi, madaniyati va adabiyotini yaxshi bilgan Klaprot Yevropa sharqshunosligida "Boburnoma" xususida ilk bor to'laqonli fikr yuritgan edi. Muallif "Boburnoma"ning ayrim boblarini fransuz tiliga o'girib, o'z tarjimalarini asl nusxa bilan qiyosiy tahlil qiladi va asar matnining lisoniy jihatlari haqida tegishli xulosalar chiqaradi. 1854 yilda Parijda "Hozirda va qadimda yashagan tarixiy shaxslar hayoti" nomli katta kitob chop qilinadi. Mazkur kitobdan sharqshunos M. Langle (1763-1824)ning "Zahiriddin Bobur hayoti va ijodi" nomli maqolasi ham o'rinni o'lgan edi. Maqolada Bobur haqidagi avvalgi manbalarga nisbatan ancha boy ma'lumot berilgan bo'lib, o'quvchi undan adib hayoti va ijodi to'g'risida chuqurroq bilim olishga muvaffaq bo'ladi. XIX asrning oltmishinchi yillarida fransuz leksikografi Pyer Larusning "XIX asr fransuz qomusiy lug'ati" ("Grand Larousse universelle du XIX siècle")ning ko'p jildligi nashr etiladi. Lug'atning ikkinchi jihatidan o'rinni o'lgan "Zahiriddin Muhammad Bobur" maqolasi diqqatga sazovordir. "Zahiriddin Muhammad Bobur Amir Temurning nabirasi bo'lib, 1483 yilda tug'ilgan, – deb boshlanadi maqola, - 1494 yilda tatarlar (bu yerda o'zbeklar ma'nosida – M. X.) yurtning g'arbida, keyinroq Xurosonda taxtga o'tiradi. 1525 yilda o'ng ming otliq suvoriylari bilan Hindistonni egallab, Qandahor, Kobul, Dehli, Agra shaharlarini o'ziga bo'ysundiradi. So'ngra Hindistonda Buyuk Mo'g'ullar imperiyasiga asos soldi. XVIII asrning oxiriga qadar Hindistonda boburiylar sulolasi hukmronlik qildi. Bobur 1530 yilda vafot

¹⁹ Ayni manba va google.uz/Boburnoma haqida

etdi”. Ushbu satrlardan so‘ng maqolada “Boburnoma” kitobi xususida fikr yuritiladi. Maqola muallifi kitobning yozilishi va boshqa tillarga tarjima qilinishi tarixiga to‘xtalib, “bu asar, darhaqiqat, juda qiziqarli bo‘lib, hali Fransiyada qariyb ma’lum emas. Turkiy-chig‘atoy tilida yozilgan bu kitob dastlab forsiyga tarjima qilindi va Hindiston musulmonlari orasida shuhrat topdi”, – deb yozadi. Pyer Larus qomusidagi maqola muallifi “Boburnoma” matni badiiyligi xususida mulohaza yuritarkan, aniq xulosalar chiqarishga harakat qiladi. “Uslubi jihatdan, – yozadi muallif, – asarning birinchi va ikkinchi qismining boshlanishi juda qiziqarli yozilgan, voqealarga, detallarga boy, xronologik izchil, ifoda soddaligi va ravonligiga katta e’tibor berilgan”. Shuningdek, maqolada “Boburnoma”ga chizilgan miniatyuralar xususida ham ijobiy fikrlar bildiriladi, Boburning Afg‘oniston va Hindistonga qilgan yurishlari haqidagi rang tasvirlarda juda jonli ifoda etilganligi ham qayd qilingan. Venger sharqshunosi Herman Vamberi 1873 yil Sankt-Peterburgda nashr qilingan “Buxoro va Transaksoniya tarixi” asarida “Boburnoma”ni “Sharq Sezarining xotiralari” deya baholaydi. Diqqatga molik tomoni shundaki, Pyer Larus qomusidagi maqolada esa bu haqda Vamberidan oldinroq quyidagicha ta’rif berilgan: “O‘quvchida “Boburnoma”da xuddi Rim imperatori Yuliy Sezarning, ”Xotiralar” kitobini eslatadi. Ha, Sezar “Xotiralar”i bilan bu asar o‘rtasida ko‘p o‘xshash jihatlarni kuzatish mumkin. Ikkala muallif ham voqealar bayoniga, haqqoniyligiga bir xil tasvirda yondashadilar, bir geografik joylar tasvirini berishda ayrim yaqinliklar ham mavjud. Birok, turk hukmdori qalamida qahramonlar kayfiyatini, ichki va tashqi dunyosini chizishdagi mahorat Rim imperatorinikiga qaraganda badiiy jihatdan ustunroq. Ya’ni, birinchisi o‘z kitobida turli maroqli va jozibali sarguzashtlarini rivoyat va latifalar, xalq yumori, maqol va matallar ishtirokida badiiy mahorat bilan tasvirlaydi. Maqola so‘ngida “Boburnoma”ning fors va ingliz tiliga qilingan tarjimalari, bu tarjimalardagi ayrim kamchiliklar xususida ham fikr bildirilgan.²⁰ XX asrda ham fransuz sharqshunoslari tarafidan Zahiriddin Muhammad Bobur merosini o‘rganish, “Boburnoma”ni tarjima qilish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi.

²⁰ [http://wikipedia.org/Heritages d’Orient et Babur](http://wikipedia.org/Heritages d'Orient et Babur)

Fransuz qomuslarida Bobur hayoti, ijodi va “Boburnoma” kitobi haqida umumiy ma’lumot beruvchi maqolalar ko‘paydi. 1930 yil fransuz olimi Fernand Grenardning “Bobur Hind imperiyasining asoschisi” (Baber est fondateur de l’Empire des Indes. – Paris. 1930, p.179.) nomli risolasi nashr etiladi. Kitob o’n bobdan iborat bo‘lib, unda Boburning bolalik vaqtidan to umrining so‘nggi davriga qadar boshidan kechirgan voqealar tarixiy-badiiy asnoda hikoya qilingan. Grenardning ushbu risolasi “Boburnoma”ga hamohang yozilgan bo‘lib, undagi voqealarga monand keluvchi ilmiy-ommabop ocherklardan Boburning Samarqandni tashlab chiqqan, Andijonni qo‘ldan chiqargan paytdagi holatini quyidagicha tasvirlaydi: “Orzu-umidlari chilparchin bo‘lgan Bobur orqaga qaytadi. Bahor fasli edi, u tog‘asi yurti (Toshkent – M.X.) tomon yo‘l oladi. U ezilgan ko‘ngliga taskin berish niyatida o‘zining quyidagi misra bilan boshlanuvchi g‘azalini bitadi:

Jonimdan o‘zga yori vafodor topmadim.

Ko‘nglumdin o‘zga marhami asror topmadim.”²¹

Boburning Hirot va Qobuldagagi hayoti Grenard kitobida birmuncha jonli tasvirlanadi. Bu yerda Bobur taxtu toj uchun jangtalab sohibqiron emas, balki nozikta’b inson va dilbar shoir qiyofasida ko‘rinadi.

O‘tmish adabiyot va tarix, musiqa va san’atdan yaxshi xabardor bo‘lgan, diniy ta’limotga chin ixlos qo‘ygan Bobur har doim olimu fozillar davrasida bo‘ldi, xususan ijod ahliga, kasbu hunar sohiblariga samimiyl ehtirom ko‘rgazib homiylik qildi, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirib turdi. Ijod va san’at ahliga bunday mehrli munosabat aslo beziz bo‘lmagan. Bobur tabiatan ijodkor edi. Yigitlik yillaridan boshlab to umrining oxirigacha samarali ijodiy ish bilan shug‘ullandi, har qanday sharoit va vaziyatlarda ham ijoddan to‘xtamadi, natijada, har jihatdan muhim boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi.

²¹ Z.M. Bobur “Boburnoma” 2008 Toshkent O’qituvchi NMIU

Bobur 18—19 yoshlarida ruboiy va g‘azallar yoza boshlagan. Uning «Topmadim» radifli g‘azali va «YOd etmas emish kishini g‘urbatda kishi» misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysi o‘sha yillardagi hayoti bilan bog‘liq.

Boburning ulkan san’atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko‘tara oladi va natijada asarlarida olg‘a surilgan g‘oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tariladi. Bobur ijodida, xususan, she’riyatida kindik qoni to‘kilgan ona yurtini dildildan qo‘msash, uning tuprog‘iga talpinish, g‘ariblik azoblaridan o‘tli hasrat, yoru diyor soginchi va visol ilinji, taqdir zARBalari va turmush uqubatlari, zamona nosozliklaridan nola badiiy tahlil etiladi.

Bobur ijodida ishq-muhabbat, sevgi-sadoqat, visol va hijron mavzui ham salmoqli o‘rin tutadi. Uning g‘azal va ruboiylarida, tuyuq va masnaviyalarida ma’shuqaning maftunkor go‘zalligi, beqiyos husnu latofati, sharqona odobu axloqi, nozu karashmasi engil va o‘ynoqi, musiqiy va ravon misralarda katta mahorat bilan tarannum etiladi.

1983 yil YuNESKO qarori bilan Bobur tavalludining 500 yilligi keng nishonlandi. Bu qutlug‘ sanaga fransuz olimlari ham ajoyib tuhfa tayyorladilar. Parijdagi “Pyublikasion orientalist de Frans” (ROG‘) nashriyoti “Boburnoma”ning yangi fransuzcha tarjimasini “Le livre de Babur” (Bobur kitobi)” nomi bilan chop etdi. Mazkur tarjima yirik turkshunos olim, doktor Jan Lui Bake-Grammon qalamiga mansub bo‘lib, u 478 sahifadan iboratdir. Tarjimaga taniqli fransuz sharqshunosi, professor Lui Bazen so‘zboshi yozgan. So‘z boshidagi Boburning Buyuk Boburiylar imperiyasini barpo qilish yo‘lidagi kurashi, “Boburnoma”ning yozilish tarixi, bu asarning jahon adabiyotida tutgan o‘rni xususida atroflicha ma’lumot bergen. 1981 yil “Boburnoma”ning doktor Bake-Grammon tarjimasi XTF (Xalqaro tarjimonlar federatsiyasi)ning bosh sovrinini oldi.

II BOB. BADIY TARJIMA VA UNING QIYOSIY TAHLILI. “BOBURNOMA”.

Doktor Bake-Grammon tarjimasi “*Bobur Movarounnahrda*”, “*Bobur Afg'onistonda*”, “*Bobur Hindistonda*” deb uch qismga bo‘lingan. “*Bobur Movarounnahrda*” qismiga o‘zbekistonlik olima Sabohat Azimjonova so‘zboshi yozgan. “*Bobur Hindistonda*” sarlavhali o‘n olti sahifadan iborat kirish so‘zini hind olimi, Kashmir universiteti professori Muhibbul Hasan yozgan. Kirish so‘zida Boburning Hindistonga yurishlari, bu yerda uning davlatni mastahkamlash sohasiga olib borgan tadbirlari, hind xalqi bilan do‘stona munosabati, ma’rifat va adabiyotni rivojlantirishdagi xizmatlari e’tirof etilgan. Muhibbul Hasan “Boburnoma” xususida to‘xtalarkan, bu asarning Boburshoh shaxsiyati va davlat tizimini o‘rganishidagina emas, balki Hindiston tarixi, geografiyasi va madaniyati o‘tmishini o‘rganishda ham qimmatbaho manba ekanini alohida ta’kidlab o‘tadi. “Boburga qadar bironta musulmon tarixchisi yoki geografi (al-Beruniy bundan mustasno) Hindistonni bu qadar jonli va to‘g‘ri tasvirlagan emas,” – deydi muallif. Shuningdek, Shoh Boburning o‘z fuqarosi – hind xalqi bilan do‘stona muomalada bo‘lganini, hindlar ham shoh tuzumidan mamnun yashaganliklarini qayta-qayta ta’riflab o‘tadi. “Boburnoma”ning doktor Bake-Grammon tarjimasi fransuz o‘quvchisining didiga yaqin saviyada amalga oshirilgan. Unda Bobur hukmronligi davri Movarounnahr, Afg'oniston va Hindiston yerlarining xaritalari berilgan. Bu esa o‘quvchining yuqoridagi o‘lkalarning geografik o‘rni bilan tanishtiradi. Kitob oxirida qirq sahifadan ortiq joy nomlari, milliy atamalar va kishi ismlariga oid atamalar berilgan. 1985 yil “Boburnoma”ning fransuzcha tarjimasi qayta tarjima qilindi. Ikkinci nashr birinchisidan o‘zining hajmi, qog‘obi va sifatining afzalligi bilangina emas, balki unga kiritilgan yangi ilmiy manbalar, ba’zi tuzatishlar, ko‘p sonli miniatyura bezaklari bilan ham ajralib turadi. Bu nashrga professor Anri Mikel qisqacha kirish so‘zi yozgan. Professor Anri Mikel unda quyidagicha fikrni bildiradi: “Janglar, g‘alaba va mag‘lubiyatlar, kelishuvlar... bular shubhadan xoli, albatta. Shuningdek, xotiralar, fikrlar, zaifliklar, yurak dardlari haqida nihoyatda soddalik bilan, hech bir mubolag‘asiz hikoya qilinali. Bularning hammasi yuksak

darajada tuzilganki, go‘yo kitob emas, jozibali bir tasvir deysiz”. 1985 yilgi fransuzcha nashrga Dehli muzeyida saqlanayotgan “Boburnoma” qo‘lyozmasi uchun ishlangan ellikdan ortiq miniatyuralar va o‘ttizdan ziyod zamonaviy fotosuratlar ham kiritilgan bo‘lib, ular asar mazmuni ifodalangan yoki o‘sha davr miniatyuralarida tasvirlangan voqeа, manzara, ko‘rinishlarning naqadar hayotiyligini tasdiqlab turadi²².

«Boburnoma»da keltirilgan joy va tabiiy ob’ektlarning nomlari o‘sha yerda yashaydigan aholi tilida keltirilgan. Bu esa toponimikaning asosiy qoidalaridan biri, ya’ni joy nomlari tarjima qilinmasligini muallifning yaxshi anglaganidan dalolat. Farg’ona vodiysining janubi-sharqidagi tog’larni (hozirgi nomi Turkiston tizmasi) Bobur Andijon tog’lari, shimoldagi tog’lar (Talas)ni esa Yettikent tog’lari, deb atagan. «Boburnoma»da O’rta Osiyo, Afg’oniston va Hindistondagi yuzlab geografik nomlar, jumladan, Konibodom, Hodarvesh, Kuhisafid, Nazargoh, Toshkent, Samarqand, Sivolak kabilar tarixiy va lug’aviy jihatdan izohlab berilgan. Quyida doktor Bake-Grammon tarjimasи – *Le livre de Baburda* hamda “Boburnoma”da uchraydigan joy nomlari zikr etilib, ularning o’zbek va fransuz tillaridagi xususiy va umumiyligi jihatlari qiyosiy tahlil etiladi. Aytish joizki, “Boburnoma”da joy nomlariga doir yuzlab misollar toppish mumkin. Ammo biz ularning hammasini birdaniga tahlil eta olmaymiz. Sababi ishimizning ma’lum chegaraga ega ekanligidir. Quyida ko’p ishlatilgan va istisnoli ko’rinishga ega joy nomlariga e’tibor qaratiladi.

O’rta asrning oxirlari toponimik materiallarni qamrab olishda ikkinchi oltin davr bo‘ldi, desak adashmaymiz. «Boburnoma» asari shular jumlasidandir. Bobur o’z asarida turli joylarning iqlimi, relef, aholisi va boshqa xususiyatlarini tasvirlar ekan, ularni bir-biri bilan taqqoslashda qiyosiy usuldan ustalik bilan foydalangan. Bu esa hozirgi zamon geografiyasida keng qo’llaniladigan usullardan biridir.

²² http://google.ru/ilmiy_maqlolar/Boburnomaga_oiq_maqola/

2.1. “Boburnoma”da joy nomlariga oid so’zlarning qiyosiy tahlili.

Andijonda boshlanib, Hindistonda yozib tugatilgan ushbu asar XV asr oxiri, XVI asr boshlaridagi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston xalqlari tarixi, tabiat, har bir tasvirlanayotgan hududning geografik o‘rni, iqlimi, o‘simpliklari, qazilma boyliklari, hayvonot dunyosi va umuman, muallifning Farg‘ona vodiysida o‘tgan yoshlik yillaridan to Hindistonda podsholik qilgan yillarigacha bo‘lgan voqeahodisalarni o‘z ichiga olgan tarixiy asardir. “Boburnoma”dagi ma’lumotlar bevosita Boburning kuzatishlari asosida yozilgan original asar bo‘lib, muallif o‘z asarini yozishda birorta ham xattot yollamagan. Asardagi keng qamrovli ma’lumotlar shu darajada qimmatliki, mana besh asrdan buyon tarixchilar, geograflar, tilshunoslar, sharqshunoslar, etnograflar, arxeologlar, adabiyotshunoslar va botaniklarni o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Asar uch qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismida Movarounnahr voqealarini, ikkinchi qismida Kobul hududidagi voqealar, uchinchi qismida esa Hindiston aks ettirilgan.

“Boburnoma”dagi geografik nomlar, tarixiy sanalar va voqealarning ko‘pligiga qaramay, u oson va qiziqib o‘qiladi. Bobur asarda Movarounnahr, Afg‘oniston, Xuroson, Eron va Hindistonning ko‘plab shaharlarini tilga olgan. Andijon, Samarqand, Buxoro, Kobul, G‘azna, Balx, Badaxshon, Dehli, Delavpur, Lohur shaharlarining geografik joylashishi, o‘sha davr xo‘jaligidagi tutgan o‘rni haqida ma’lumotlar qoldirgan.

U tilshunoslikka doir maxsus asar yozmagan bo‘lsa ham, lekin o‘zining qomusiy asari bo‘lgan «Boburnoma»da tilshunoslikka doir bir qator qimmatli fikrlarni bayon qiladi.

Professor N. Hasanovning ta’kidlashicha, «Boburnoma» asarida 1000 ga yaqin geografik nom tilga olingan. O‘rta Osiyoga doir joy nomlarining ko‘pchiligi hamon o‘sha davrdagi kabi yoziladi va talaffuz etiladi. Bulardan ba’zilariga to‘xtalib o‘tmochimiz.

- | | |
|------------------------|----------------------------|
| 1. Farg‘ona-Ferghana | 9. Shahrisabz-Shakhri-Sabz |
| 2. Samarqand-Samarqand | 10.Qorako‘l-Karakoul |
| 3. Andijon-Andijan | 11.Namangan-Namangan |
| 4. Buxoro-Boukhara | 12.Sangzor-Sangzor |
| 5. Koson-Kosson | 13.Piskent-Piss-kend |
| 6. Xovos-Havas | 14.Ilono‘ti-Ilon-oti |
| 7. O‘ratepa-Ouratepe | 15.Ohangaron-Akhangaran |
| 8. Zomin-Zamin | |

Bu kabi joy nomlarini juda ko‘plab uchratish mumkin. Ba’zi birlari esa shaklan o‘zgarib yetib kelgan:

1. Marg‘inon-Marg‘ilon-Marguinan
2. Dizak-Jizzax-Djizak
3. Toshkand-Toshkent-Tachkent
4. Chir suvi-Chirchiq-Tchir-tchik
5. Xo‘qon-Qo‘qon-Kokand
6. Siyohob-Soyob-Soiyob
7. Pashag‘ar-Pishag‘ar-Pachagar
8. Quzor-G‘uzor-Gouzar
9. Shorju-Chorjo‘y-Tchor-joy
- 10.Qubo-Quva-Kouba

Bir qancha joy nomlari esa butunlay boshqacha nom olgan:

1. Xo‘jand suyi-Sirdaryo-Khudjand Syr-darya;
2. Darbandi Ohanin-Temir Darvozasi.

«Boburnoma»dagi joy nomlaridan ko‘pchiligining ma’nosini o‘zbekcha va forsha lug‘atlar yordamida tushunsa bo‘ladi. Bir qancha toponimlarning etimologiyasiga «Boburnoma»da alohida to‘xtalib o‘tilgan.

«Boburnoma»da Bobur adabiy tilni xalq jonli tiliga yaqinlashtirish uchun harakat qilganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bobur tilni boyitishga va soddalashtirishga, barqaror qo‘llanilmagan ko‘p so‘zlarni ishlatishga harakat qildi va ulardan o‘rinli foydalandi.

“Boburnoma”da juda ko‘p joylarning nomi, umumiy ko‘rinishi va u yerdagи shahar-qishloqlar haqida real tasvirlar keltiriladi. Xususan, Farg’ona, Movarounnahr, Afg’iston va Hindistonga oid joy nomlari tasvirlanadi. Farg’ona haqida gap borganda, Bobur uning geografik jihatdan ko‘rinishini bayon etadi va unda joy nomlarini navbatma-navbat tilga oladi. Doktor Bake-Grammonning tarjimasida ham joy nomlariga oid so’zlar o’ziga xos uslubda keltiriladi:

[...]Le pays de Ferghana fait partie du cinquième climat. Il est situé à la limite des terres habitées. À l’Est se trouve Kachghar, à l’ouest Samarqand, au sud les montagnes qui bordent le Badakhchan. Au nord, bien qu’il se trouva jadis des villes telles Almaligh, Almatu, Yangi qu’on appel Otrar dans les livres[...]²³- Farg’ona viloyati beshinchi iqlimdadir. Sharqi Koshg’ar, g’arbi Samarqand, janubi Badaxshponning chegarasi – tog’lar, shimolida ilgarilar Olmoliq, Olmotu va Yangi singari shaharlar bo’lgan ekan, uni kitoblarda O’tror deb yozadilar[...]²⁴. Berilgan misolda Farg’ona viloyati ya’ni hokimligining tasviri va

²³ J.L. Baque-Grammont le Livre de Babur. Page 45

²⁴ Z.M. Bobur Boburnoma. 29-bet

unga yondosh hududlar nomlari ketma-ketligi uchramoqda. Fransuzhaga joy nomini tarjima etilishida albatta, fransuz tilining talaffuz jihatiga va til qolipiga muvofiqlashtirishga urinish ko'rinish turibdi: *Farg'ona viloyati – le pays de Ferghana* bunda *viloyat* so'zi *le pays* – *mamlakat* so'zi bilan ifodalanmoqda. Sababi yuqorida aytib o'tilganidek, Farg'ona viloyati u davrda farg'ona hokimligi bo'lган. Buni misolning davomida kelajak joy nomlari ham bildirib turibdi: *Almaligh – Olmoliq; Almatu – Olmotu* va hk. Bu joy nomlari chig'atoy turkiy tilida Bobur tilida bitilgan. Fransuz tiliga ham ana shu arxaik moslik saqlab qolinishiga erishilgan.

Zahiriddin yoshlidanoq turli sayohatlarni yaxshi ko'rgan. Bunday safarlarda chiniqqan ham. Yosh bo'lishiga qaramay, o'lkamizning geografik qiyofasini tasavvur qila olgan. Olim 15-16 yasharligida Farg'ona, Samarqand va Toshkent oralig'ini bir necha marta kezib chiqqan. 19 yoshga to'lgan yili Hisor tarafidan toqqa ko'tarilib, Fondaryo va Iskandarko'l orqali Zarafshon vodiysiga o'tib, Samarqandga kelgan. Boburning yozishicha, 21 yoshigacha Farg'onadan Buxorogacha, Toshkentdan Hisor va Hirotgacha bo'lgan barcha shahar va qishloqlarda hamda dashtu tog'larda bo'lgan. Farg'ona vodiysida u borgan eng sharqiy joy – O'zgan shahridir. O'zbekistonning g'arbi, Buxoro va Qarshi ham Boburga yaxshi tanish edi. Shuningdek, Eron bilan Afg'oniston chegarasida, o'sha davrning eng yirik poytaxtlaridan bo'lgan Hirotda bir qancha vaqt yashagan. Shu tariqa umrining deyarli 36 yilini safarlarda o'tkazgan va o'n minglab kilometr yo'l bosgan, Bobur Farg'onadan Bangolagacha (Hindistondagi Bengaliya) borgan. Sayohatlari mobaynida esa Bobur o'zining shoh asari «Boburnoma» uchun boy ma'lumotlar to'plagan. Manbalarda keltirilishicha, yonida doimo xotira daftari bo'lgan va u ko'rgan, bilgan, eshitganlarini darrov yozib qo'yardi. Keyinchalik yozuvlarini tartibga solib, qo'shimchalar kiritib, tahrir qilib, yaxlit asar ko'rinishiga keltirgan.

Darhaqiqat, olimning yaratgan badiiy asarlari bilan bir qatorda O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindiston davlatlarining geografiyasi, tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, tabiatni, etnografiyasi va tibbiyotiga oid muhim ma'lumotlarni o'zida aks

ettirgan «Boburnoma» alohida o’rin tutadi. «Boburnoma» Zahiriddin Muhammad Boburning Farg’onadagi yoshlik chog’laridan to Hindistonda podshoh bo’lganigacha boshdan o’tkazganlarining mufassal ta’rifidir.

[...]Le Sayhun, qu’on appelle aussi Rivière de Khojand arrive du nord-est²⁵... - *Sayhun suvi Xo’jand nomida mashhur, u sharq-u shimol tarafdan kelib...oqadi;*²⁶[...] Ushbu misolda ham joy nomiga oid atama qo’llanilganiga guvoh bo’ldik. *Sayhun* daryo nomi ekani hammamizga ma’lum, bu nom ayni qoldirilgani fransuz tiliga talaffuz jihatidan qiyinlik tug’dirmaydi. *Xo’jand* nomidagi *X* harfi fransuz tiliga *Kh* birikmasi bilan o’girilgan. Chunki *X* harfi zamonaviy yevropa tillarida *iks* tarzida talaffuz qilinadi. Ammo fransuz tilida bunday birikma yoki diftong aslida yo’q. Shu jihatdan qaralsa, bu *kh* birikmasi chetdan kirgan so’zni oson talaffuz qilishga ko’maklashuvchi sifatida sun’iy diftongga aylanadi. Bu kabi holat fransuz tilida ko’p uchraydi.

[...]le district d’Asfara comprend quatre subdivisions situées au pied des montagnes, ce sont Asfara, Varukh, Sukh, et Huchyar.²⁷ - *Isfara viloyati tog’ etagidagi to’rt bo’lukdan iborat: biri Isfara, biri Vorux, yana biri So’x, yana biri Xushyor*²⁸. Qiyosi ko’rilayotgn joy nomlari har ikkala tilning o’ziga xos va umumiy jihatlarini yaqqol namoyon etmoqdaki, bunda *Isfara – Asfara; Xushyor – Huchyar* shaklida imkon qadar asl Bobur lafzini fransuzzabon kishilarga yetkazishga urinish bor. Yuqorida aytiganidek, *X* harfi fransuz tiliga *Kh* shaklida ko’chadi. Biroq, istisno tariqasida bu misolda *Xushyordagi X – H* shaklida kelmoqda. Lekin *So’x* yoki *Vorux* nomlaridagi *x* harfi *kh* diftongida kelgan. Bu ayni fransuz tilining o’ziga xos jihatidir.

«Boburnoma»da keltirilgan ma’lumotlar shundan dalolat beradiki, olim nafaqat tabiatshunoslik va geografiyani, balki biologiya, zoologiya, etnografiya, tarix va boshqa fanlardan yaxshi xabardor bo’lgan. Jumladan, «Boburnoma»da mingdan ortiq geografik nomlar - mamlakat, shahar, qishloq, qal’a, dasht, tog’,

²⁵ Tel livre. Page 45

²⁶ Z.M. Bobur “Boburnoma”. 29-bet.

²⁷ Tel livre. Page 48.

²⁸ O’sha kitob. 30-bet.

dovon, dara, daryo, ko'prik, kechuv, ko'l, chashma, bog', yaylov, o'tloq va boshqa joylarning nomlari tilga olinadi. Bundan tashqari, Bobur bir qancha uzoq mamlakatlarning (Arabiston, Iroq, Eron, Ozarbayjon, Rum, Tibet, Xitoy, Qoshgar) nomlarini ham keltirganki, bu olimning o'sha vaqtlardagi dunyo geografiyasidan ham yaxshi xabardor bo'lganligidan dalolatdir.

Kobul va uning atrofidagi joylar nomalari va ularning qiyosiy tahlili. "Boburnoma"da bunga oid quyidagi misollar fikrimizni to'ldiradi:

"[...] d'escorter Muqîm, sa famille et ses biens à l'extérieur de la ville. Je lui assignai Tépe comme lieu de résidence."²⁹ - "[...] *Muqimga Tebani yurt tayin qildik. ...Muqim o'ziga tegishli kishi va jihoz-u narsalari bilan sog'-salomat borib Tebaga tushdi.*"³⁰

Berilgan misolda *Teba* joy nomi keltirildi. Bu nom hozirgi o'zbek tilida *Tepa* ya'ni *baland joy* ma'nosidadir. Fransuz tiliga uning fransuzcha talaffuzga moyil ko'rinishda *Tépe*(*Tep*) bo'lib kelmoqda. Bobur bu joy nomini o'z davri talaffuzida olgan. Fransuz tarjimonи esa uni hozirgi tilimizdagi aytilishiga yaqin ko'rinishda bermoqda. Bu nomni fransuz tiliga tarjima qilinsa, *Haute* degan so'zga aylanadi. Qiyosiy tahlil qilib shuni aytish mumkinki, bu joy nomi "Livre de Babur"da faqat talaffuzga nisbatan olingan.

Yana bir misol: [...] **Ce fut dans la dernière decade du premier rabî que, sans lute ni combat, par la grace et la clémence de Dieu Très-Haut, le royaume et le pays Kabul et de Ghazna nous furent accordés et soumis. ...le pays de Kabul fait partie du quatrième climat. À l'est se trouvent le Lamghanat, l Parchavar, Hachnagar et les pays de l'Inde. À l'ouest se trouvent les régions montagneuses où sont situés Keryu et Ghor; ces régions sont aujourd'hui le refuge des tribus Hazara et Nigderi. Au Nord se trouvent les pays de Qunduz et d'Andarab dont la ville est séparée par les monts de Hindu Kuch. Au Sud se trouvent Farmul, Naghar, Bannu et l'Afghanistan**³¹. – *rabi'ul avval oyining oxirida tangri ta'oloning fazl-u karami bilan Kobul va G'azni mulk hamda viloyatlari jang-*

²⁹ Tel livre. Page 167.

³⁰ O'sha kitob. 105-bet.

³¹ Tel livre. Page 167.

*jadalsiz menga muyassar bo’ldi va fath etildi. Kobul viloyati iqlimdadir. ... Sharqi Lamg’onot, Purshovar, Hashnag’ar va ba’zi Hind viloyatlaridir. G’arbi tog’li maskanlardir. Karnud va G’o’r o’sha tog’lardir. Hozirgi paytda hazora va nakdariy qavmlari maskani shu tog’lardir. Shimoli Hindukush tog’iga tutashgan. Qunduz va Andarob viloyatlaridir. Janubi Farmul, Nag’ar, Bannu va Afg’onistonidir.*³²

Qiyosiy sharh: misolda berilgan joy nomlarning ba’zilari tarixiy, ba’zilari bugun ham mavjud. Masalan: *Kobul* bu joy hozir ham bor. fransuzcha satrda uni *le pays de Kabul – Kobul mamlakati* deb aytilmoqda. O’zbekcha iqtibosda esa *Kobul viloyati* deb kelgan. *Viloyat* fransuz tilida *region* deb aytildi. Doktor Bake-Grammon tarjimasida ba’zi joylarni *region-viloyat* tarzida keltiradi. Ammo *Farg’ona, Qunduz va Kabul* singari joylarni *le pays-mamlakat* tarzida kelishi shuni anglatadiki, bu aytilgan hududlar alohida davlat maqomida bo’lgani tarixiy faktlarga ega. Buni iqtibosdagi boshqa joy nomlarini, masalan, *G’or* va *Karnudni region-viloyat* deb keltirilganiga guvoh bo’ldik. Bunda istisno ham borki, Bobur lafzida *Qunduz, G’or, Karnud, Farmul yoki Bannu* joy nomlari *viloyat* deb berilgan. Fransuzcha tarjimada esa ba’zilari *mamlakat* ba’zilari *viloyat* deb keltirilgan.

Qiyosiy tahlil: joy nomlarining berilishi quyidagi usulda, ya’ni, dastlab doktor Bake-Grammon kitobidagi kor’inish, so’ngra(davomida) Bobur lafzi zikr etiladi va qiyosiy tahlili qilinadi:

- 1) *Kabul – Kobul;* bu nom talaffuz jihatidan fransuz tilida oson aytilishi yuzasidan aynan qoldirilgan.
- 2) *Ghazna – G’azni mulk;* bu joy nomida *G’* harfi *Gh* tarzida berilgan. Bobur lafzidagi *mulk* qoldirilgan.
- 3) *Le Lamghanat – Lamg’onot;* bu joy nomi ham yuqoridagi holatni kasb etadi. Odatda fransuz tilida shahar va viloyat nomlari oldiga artikl qo’yilmaydi. Artikl faqat davlat nomlari ba’zi istisnoli viloyat nomlari oldiga qo’yiladi. Bu yerda esa artikl qo’yilmoqda. Sababi qiyosiy sharhda tilga olindi.

³² O’sha kitob. 105-bet.

- 4) *Le Parchavar - Purshovar*; bu joy nomida ham shu kabi holat aks etmoqda. Bu yerda fransuz tilining struktura jihatiga namoyon bo'lmoqda. *Purshovardagi u a* ga aylangan: *Parchavar*.
- 5) *Hachnagar – Hashnag’ar*; bu joy nomidagi **H** yozuvda yoziladi, ammo talaffuz qilinmaydi. **G’** harfi esa doimgidek **gh** bo’lib kelmagan. Sababi, *gh* birikmasiga talaffuz jihatidan ehtiyoj tushmaydi.
- 6) *L’Inde - Hind*; bu nom mamlakat nomi ekani ayon bo’lib turibdi. Bobur davrida *Hindistonne Hind* deb atalar ekan, *Boburnomada* shu tarzda kelgan. Ammo fransuz tilida *Hindiston-Inde* deb aytishihi avvaldan shunday.
- 7) *Keryu - Karnud*; bu joy nomida ko’rib turganimizdek o’zgarish bor. o’zgarish sababi yuqoridagi sharh va tahlilda aytib o’tildi.
- 8) *Ghor – G’o’r*; bu joy nomida ham yuqoridagi kabi holat aks etgan. Fransuz tilida *o’* harfini talaffuzda aytish bor. ammo *o* harfi bilan emas. Boshqa harf birikmalari bilan beriladi: *eu-o’*; *au-o’*; *eau-o*; ammo *o-o*.
- 9) *Hazara – xazora*; bu nom Bobur lafzida *qavm(aholi, xalq)* nomi sifatida qayd etilib, kichik harf bilan berilgan. Tarjimada esa bu joy nomi sifatida ko’rsatilib bosh harflar bilan berilgan.
- 10) *Nigderi – naqdariy*; bu nom ham *xazoraga* berilgan tahlilda aytib o’tildi.
- 11) *Qunduz – Qunduz*; bu joy nomi Bake-Grammon tarjimasida tarjimasi so’zma-so’z bo’lgan. Mamlakat sifatida ko’rsatilgan.
- 12) *Andarab - Andarob*
- 13) *Hindu Kuch – Hindukush*; bu nom joy emas, tog’ nomi sifatida Bobur lafzida keladi. Biz bu nomni misolga qo’shganimiz – bu joy aholi ham yashaydigan maskanlar bor tog’ dir.
- 14) *Farmul – Farmul*; bu joy nomi so’zma-so’z tarjima etilgan.
- 15) *Naghar – Nag’or*; bu joy nomi ham xuddi shunday.
- 16) *Bannu – Bannu*; bu joy nomi ham xuddi shunday.
- 17) *L’Afghanistan – Afg’iston*; bu nom *Hind* nomining qiyosiybtahlili bilan aynan bir xildir.

[...] Finalement, ne pouvant arriver à un accord, ils rangèrent leurs troupes respectives en ordre de bataille près d'Ichkemich, revêtirent leurs broignes, faillirent se battre, mais en restèrent là. ...Il fit halte à Khaja Tchartaq, à un ou deux yihatch de la place. ...Sultan Ahmad l'Obèse dans l'Andijan...Chaybanï Khan était arrivé à Hisar³³... - *Oxiri suhbat kelishmay, Ishkamish yerlarida saf tortishib, sovutlar kiyishib, urushayozib, ayrilishdi.* (izoh :Xisravshoh...Qunduzni qamal qilish niyatida kelib,³⁴)bir-ikki yog'och beridagi Xoja Chortoqqa tushdi. ...Muhammad Shayboniyxon Andijonda Sulton Ahmad Tanbalni asir olib, ...Xisorga keldi.³⁵

Qiyosiy sharh: ushbu misolda aksar so'zma-so'z tarjima ko'rinoqda. Masalan: ismlar, joy nomlari va so'zlar. *Xoja-Khoja; Tanbal-Obèse; yig'och-yighatch* va hokazo.

Sulton Ahmadning laqabi *Tanbal* ekan, Bobur uni shu laqabi bilan tilga olgan. Fransuz tiliga esa bu laqab tarjima qilingan. Sababi bu oddiy laqab shekilli, doktor Grammon uni tarjima qilgan. Agar ismga teng taxallus bo'lganda bunday bo'lmasdi.

Qiyosiy tahlil: iqtibosda quyidagi joy nomlari zikr etildi. Ularni bundan avvalgi misol singari tahlil qilishni lozim topildi.

- 1) *Ichkemich – Ishkamish;* bu joy nomida *ch* harfi o'zbek tilidagi *sh* harfini anglatadi. Fransuz tilida birikmali harf yo'q. *ng ch gh th* kabi birikmalar yasama harf birikmalaridir. Bu nomda “*Ishkamish*”dagi **a** fransuz tilida **e** ga, **sh** harfi **ch** ga aylangan: **Ichkemich**.
- 2) *Khaja Tchartaq – Xoja Chortoq;* bu joy nomi kishi ismi bilan atalgan joy ekan. Imkon qadar tarjimada asl holatni saqlab qolishga urinilgan. O'zbek tilidagi *ch* harfini *tch* birikmasi bilan ifodalanmoqda. **Tchartaq**.
- 3) *L'Andijan – Andijon;* yuqorida aytib o'tdik, viloyat va shahar nomlari oldidan artikl fransuz tilida qo'llanmaydi. Bu yerda Andijon nomidan oldin artikl qo'yilgani, uning davlat yoki xonlik maqomida bo'lganini bildiradi.

³³ Tel livre. Page 193.

³⁴ Boburnoma – 123-bet.

³⁵ O'sha kitob. 123-bet.

4) *Hisar – Hisor*; bu tog’ nomi ekani ma’lum. Ammo bu aholi yashash maskani ekan uni joy nomi qatorida berildi. (...*Hisor qo’rg’onini bermay qo’riqladilar[Boburnoma:123-bet]*).

Yuqoridagi keltirilgan misollar shuni ko’rsatdiki, “Boburnoma” memuar xarakterga ega bo’lgan va bir qator sohalar uchun qimmatli ma’lumotlar beruvchi asar bo’lishi bilan birga undagi unda takrorlangan joy nomlari va tasvirlar badiiylik xususiyatiga ham egadir. Bobur dunyoqarashidagi jiddiy qarama-qarshiliklarga qaramay, iqtiboslarda kelgan joy nomlari va ularga bog’liq tasvirlar bir-biriga chatishib ketgan. O’lka va viloyatlarning, shuningdek, ba’zi joylarning nomlari va ularning tasviriy talqini asar kompozitsiyasida ba’zan muhim rol o’ynaydi. Bularning hammasi “Boburnoma”ning o’zbek klassik adabiyotida muhim rol o’ynashini ko’rsatadi. Boburiylar sulolasiga Hindistonda buyuk davlat barpo qilish bilan bir qatorda, ushbu yurtda obodonchilik ishlarini olib borishgan va mamlakatda ilm-ma’rifatning yuksalishiga katta hissa qo’shishgan. Shuningdek, Bobur va uning avlodlari tomonidan Toj Mahal, Shox Akbar maqbarasi, Agra va Dehlidagi Qizil qal’alar kabi mahobatli me’moriy obidalar barpo etilganki, ular hozirda ham nafaqat hindistonliklarning, balki butun dunyodan tashrif buyuradigan sayyoohlarning sevimli ziyorat maskanlari hisoblanadi.

“Boburnoma”da keltirilgan barcha ma lumotlar, xususan Farg ona, Toshkent, Samarqand, Hisor, Chag oniyon va Shim. Afg onistonning 15-asr 80—90- yillari va 16-asr 1choragidagi siyosiy ahvoliga doyr xabarlar o zining batafsilligi bilan shu xususdagi boshqa adabiyotlardan tubdan farq qiladi.

Boburning qoldirgan ilmiy merosi muhim tarixiy-geografik manba sifatida hozirgi vaqtida ham olimlar tomonidan keng o’rganilmoqda.

«Boburnoma»ning o’ziga xos tomoni shundaki, unda muallif turli hududlarning tabiatini, geografik xususiyatlari, o’simlik va hayvonot dunyosi hamda xo’jalik imkoniyatlarini yaxlit majmua sifatida sodda tilda tasvirlaydi. Bobur tug’ilgan joyi Farg’ona vodiysi va umrining bir qismi o’tgan Hindiston geografik o’rni, tog’lari, suvlari, cho’l, yaylov va bog’lari to’grisida ularning hozirgi zamon

holatiga to'g'ri keladigan qiyosiy ma'lumotlarni keltirgan. Shu nuqtai nazardan «Boburnoma»ni o'zbek tilida yozilgan dastlabki eng yirik tabiiy, tarixiy, geografik ilmiy asar, Boburni esa O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindiston geografiyasini birinchi bo'lib o'zbek tilida tasvirlagan olim, deb aytish mumkin.

2.2. “Boburnoma”da xarakter va qiyofaga oid so’zlarning qiyosiy tahlili.

“Boburnoma” mukammal asarlardan biriki, unda ko’plab sohalar qamrab olingani hammamizga yaxshi ma’lum. “Boburnoma” ana shunday yetuk asar ekan, unda badiiy tasvirga xos talqinlar, voqeа-xodisa, kishilar va o’sha zamonning qanday ekanligini, ayniqsa, ularning butun voqeiyligini ko’z o’ngimizda gavdalantira olish hamda ta’sirchanlik ustuvordir. Quyida ushbu bebahо asarning fransiyalik olim va tarjimon Jan Lui BAKE-GRAMON tomonidan qilingan tarjimasi *“Livre de Babur – Babur-nama”* bilan uning (hozirgi) o’zbekcha varianti “Boburnoma”(2008)da kishilar shaxsiy his-tuyg’ulari, qiyofa va fe’l -atvorlarini tasvirlangani qiyosiy tahlil qilinadi.

Avvalo shuni aytish kerakki, qiyosiy tahlilda o’zbek va fransuz tillarining umumiyy va o’ziga xos jihatlari ko’rib chiqiladi. Bobur mukammal va teran fikrlar sohibi ekanı hisobga olinsa, uning dunyo qarashi, tafakkuri – to abad ibrat olishga arzigulikdir. Xususan, ingliz sharqshunosi Monstuart Elfinstonning “Boburnoma” va Bobur haqida aytgan fikrlari buni tasdiqlaydi: *“Bu xotiralarda buyuk turkiy podshoning hayoti batafsil tasvirlangan. Uning shaxsiy his-tuyg’ulari har qanday mubolag’a va pardalashlardan holi. Uning uslubi oddiy va mardona, jonli va obrazli. U o’z zamondoshlarining qiyofalari, urf-odatlari va intilishlarini, qiliqlarini oynadek ravshan tasvirlaydi. ...Lekin muallifning yorqin harakteri asarga eng ko’p joziba bag’ishlaydi”*[...].

Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnom”da avval o’z ota-onasi, keyin boshqa o’ziga yaqin va taniqli kishilar haqida so’z yuritadi, ularning shakl-shamoyil va xarakterlarini tasvirlaydi. Bobur millatimiz nomini dunyoga tanitgan shaxslardan biri bo’ldi. Undan qolgan yirik ijodiy meros esa o’zbek hamda hind xalqlarining ezgu orzu-o’ylari, mushtarak maqsadlarini o’zida mujassam etgan. Bu bebahо boyliklarni asrash, o’rganish, kelgusi avlodlarga ham boricha yetkazish barchamiz uchun farzdir.

XVI asr boshlarida Zahriddin Muhammad Bobur tomonidan yaratilgan “Boburnoma” asari o’zbek adabiyotida proza janrini rivojlantirishi ishga

qo'shilgan muhim hissa bo'ldi. Bu asar fanning juda ko'p tarmoqlari uchun g'oyat katta qimmatga ega bo'lgan manba bo'lishi bilan birga, o'zbek adabiyotida prozaning yirik yodgorligi ham hisoblanadi. O'sha davr xarakterining to'la manzarasi sifatida musulmon adabiyotida mutlaqo mustasno hodisa bo'lgan, bu ajoyib asarda to'la shakllanmagan bo'lsa-da, badiiy prozaning hamma elementlari mavjuddir. Unda syujet chizig'i ham, keskin konfliktlar ham bordir. Eng muhimi bu asarda kishilar, ularning realistik portretini, xarakter va xususiyatlari ham tasvirlangandir. Zahriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari jahon adabiyoti va madaniyati xazinasida o'ziga munosib alohida bir o'rinni egallagan, uning muallifini jahonga mashhur qilgan noyob asardir. Unda muallifning o'z boshidan kechirgan voqeа va hodisalari badiiy ravishda sodda ifodalar, ixcham va silliq, lekin aniq va ravshan tasvirlanadi. Bobur bu asarda 1494 yildan 1529 yilgach bo'lgan, butun hayot davomida o'zi ko'rgan, eshitgan, bilgan voqealarni izchillik bilan, xronologik tartibda bayon qilinadi. Bobur o'z hayotida uchragan voqealarni izchillik bilan tasvirlash jarayonida Farg'ona, Movaraunnahr va Xurosonda XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida yashagan yirik davlat arboblari, temuriy hukmdorlar, bek va amaldorlar, yozuvchi va shoirlar, rassom va xattotlarning – o'z zamondoshlarining (tarixiy shaxslarning) tashqi qiyofalari, xatti-harakatlarini, fe'l-atvorlarining, ish va amallarini, muhim va xarakterli xususiyatlarini, jamiyat hayotida tutgan mavqelarini ham tasvirlaydi. Demak, "Boburnoma"da qator kishi obrazlarini ham ko'ra olamiz. Hatto ular asarda belgili bir qahramon "obrazi" – Boburning o'z obraz – tevaragida aylanadilar. Asarning ruhi, uning markaziy obraz bo'lgan Boburning xarakter va xususiyatlar, uning kishilarga, o'z atrofini o'rab olgan voqeа va hodisalarga bo'lgan munosabati asardagi barcha voqealarni bir-biriga bog'laydi, ularni bir-biriga qizil ip bilan tikadi. Asarda tasvirlangan boshqa shaxslar ko'pincha epizodik tarzda beriladi va ular asosiy obrazga biror voqeа yoki hodisa munosabati bilan bog'lanadilar, "Lekin asarga muallifning o'zining xarakteri eng ko'p joziba bag'ishlaydi.". "Boburnoma"da tasvirlangan kishilarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: Bobur obraz, Temuriy hukmdorlar (Umarshayx Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo,

Sulton Mahmud Mirzo, Boysung'ur Mirzo, Husayn Boqaro va boshqalar), Tarxonlar va harbiy aristokratiya vakillari (Abdul-ali Tarxon, Boqi Tarxon, Boqiy Chag'oniyoniy, Hasan Yaqub, Ali Do'st Tarxon), Hisravshox va boshqalar, ilm-fan, san'at va adabiyot namoyondalari va boshqalar.

Asar memuar xarakterga ega bo'lganligi uchun, unda tasvirlangan kishilarning qiyofasi, portreti ham, ularga berilgan xarakteristika ham, ularning voqealar jarayonidagi xatti-harakatlar, xarakterli xususiyat va qiliqlar ham muallifning o'zi tomonidan so'zlanadi. Badiiy asarlarda yozuvchining o'z qahramonlariga nisbatan, shubhasiz, ma'lum munosabati bo'ladi, ba'zilarini yomon ko'radi. Sevgan qahramonlarni muhabbat bilan yoqimli bir tarzda tasvir qiladi. Uni eng yaxshi ko'rgan sifatlar bilan bezaydi. Yomon ko'rganlarini esa nafrat va g'azab bilan tasvirlaydi. O'quvchida ham ularga nisbatan nafrat hislarini uyg'otishga kirishadi. Asarda turli tabaqa vakillarining qanday tasvirlanganligini yozuvchi mafkurasini, uning duyoqarashi, estetik didimi belgilaydigan muhim oqimlardan biridir. Shunday ekan, "Boburnoma"dagi kishilar qiyofasi, ularning xarakter va xususiyatlari muallif tomonidan qanday yoritilganligini tahlil qilishga kirishmasdan avval shu davrdagi ijtimoiy kuchlar va ularning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqida bir necha og'iz so'z aytmoq kerak. Zahriddin Muhammad Bobur yashagan va ijod etgan Xv asrning oxiri va XVI asrning boshlarida Markaziy Osiyoda siyosiy bosh-boshdoqlik kuchaygan, temuriy shahzodalar o'rtasida toj-taxt uchun o'zaro urushlar avj olgan, diniy reaksiyaning zaharli, achchiq tutunlari butun mamlakatni qoplab olgan, mamlakat parchalangan, xalq ommasi og'ir soliqlar va qirg'inchilik urushlari natijasida qashshoqlashgan, behad jabr-zulmdan cheksiz azob chekayotgan bir davr edi. Shu bilan birga bu davrda zamonning ilg'or kishilari ham bo'lib, ular mamlakat butunligi uchun, o'zaro urushlarni tugatish, xalq boshiga kelayotgan kulfatlarni yengillatish uchun kurash olib borgan edilar. Umuman, "o'sha davr ikki yo'nalish va shunga muvofiq, ikki asosiy guruh bor edi, birinchisi mamlakatni saqlashga, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratishni ta'min etishga qaratilgan, ikkinchisi mamlakatni parchalashga, moddiy va ma'naviy boyliklarini yemirishga, yoki ularni yaratish jarayonini

bug'ushga qaratilgan” edi. Bobur o'sha davr hukmdorlarining qiyofasini chizar ekan, ularning xarkterli xususiyatlarini xoh bir o'rinda tasvirlar, xoh voqealar jarayonida yoritar ekan, u kishilar ga birinchi guruh, birinchi yo'naliш nuqtai-nazaridan yondoshadi, ularning faoliyatiga baho beradi. Demak, Bobur bu davrdagi u yoki bu siyosiy arbobga, fan, san'at va madaniyat namoyondalariga baho berar ekan, eng avvalo o'sha shaxsning faoliyatini, jamiyat hayotida tutgan o'rnini nazarda tutadi, unga ijtimoiy tomondan yondoshishga harakat qiladi: bu shaxsning ijtimoiy turmush uchun, jamiyat, mamlakat, xalq, madaniyat va fanga yetkazgan foydasi yoki zarari nuqtai-nazaridan uni xarakterlaydi. Agar o'sha shaxs ijtimoiy turmush uchun, hayot uchun, mamlakat, xalq, fan va madaniyat uchun foydali ish qilgan bo'lsa, jamiyat rivojiga biror foydali hissa qo'shgan bo'lsa uni yaxshi deb e'tirof etadi, yaxshi kishi sifatida tasvrilaydi. Kimki mamlakat, jamiyat, xalq, fan va madaniyatga, uning taraqqiyot etishiga ziyon-zahmat yetkazishgan, unga to'siq bo'lgan bo'lsa, o'sha odamni yomon shaxs sifatida ta'kidlaydi, ularni tasvirlash orqali o'z xarakter xususiyatini ochib beradi. Bu ajoyib asarni “o'qiganda kitobxonning ko'z o'ngida o'sha davrning gigant bir shaxsiyati, siyosiy arbobi gavdalanadi”. Biz Boburni asarda tasvrilangan barcha voqealarning faol ishtirokchisi sifatida uchratamiz. U ba'zan janglar girdobida, ba'zan uzoq sarson-sargardonlik yurishlarida, ba'zan adabiy-ijodiy ish ustida, adabiy suhbatda, ba'zan bazm dilkashlik va kayfu-safo majlislarida, do'stlari bilan o'tkazilgan xushchaqchaq hazil mutoyiba o'tirishlarida, ov manzaralarida, ba'zan binokorlar, tosh yo'narlar bilan suhbatda va boshqa turli-tuman ko'rinishlarda ko'zga tashlanadi. Uning siy whole side har xil xarakterga ega bo'lgan xususiyatlar o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy hadisalarida o'z aksini topgan. “Boburnoma” Bobur uslubini aniqlashda muhim ahamaiyatga ega bo'lgan frazeologizmlarga juda boy. “Boburnoma”ning tarjimasida ana shu tafsilotlar alohida urg'u bilan beriladi:

« UMAR CHAYKH MİRZA » (*père de l'auteur*)

...comme Umar Chaykh Mirza était un souverain doué d'une haute ambition et de grandes aspirations, il y avait eu toujours des désirs de conquête. – Umarshayx Mirzo oliyhimmat va ulug' orzuli shoh bo'lgani uchun (unda) boshqa

mamlakatlarni egallash istagi bor edi. Ushbu misolda Umarshayx Mirzo « un souverain doué d'une haute ambition et de grandes aspirations – oliyhimmat va ulug' orzuli shoh » deb ta'riflanmoqda. Bunda : « oliyhimmat – **une haute ambition**(shuhratli, orzuli, izzatli); ulug' orzuli – **grandes aspirations**(ulkan ishtiyoqli, orzu maqsadli) » tarzida tarjima etilmoqda. Bunda fransuz tilining o'ziga xos jihatlari ko'rinoqda.

« Mirzo » so'zi « **Mirza (fils d'emir** – amir o'g'li) » ko'rinishida temuriylarga xosligini bildiruvchi so'z sifatida aynan qoldirilmoqda.

Aspect physique et habitudes (de Umar Chaykh Mirza)

Umar Chaykh Mirza était un personnage corpulent et de petit taille, avec une barbe ronde et un visage charnu. Il portait sa tunique si serrée que, pour en nouer les cordon...il était sans recherche dans sa mise et dans sa nourriture....En été, il portait la plupart du temps le bonnet mongol, sauf au Conseil toutefois ». -

(Umarshayx Mirzoning) shakl va shamoyili :

“ ...Past bo'yli, yumaloq soqolli, sarg'ish yuzli, norg'il kishi edi. To'nni rosa tor kiyar edi. ...Kiymoq va yemoqda betakalluf edi....yoz paytlarda mahkamadan tashqari aksar mo'g'ulcha bo'rk kiyardi.”

Ushbu misoldagi shakl-shamoyilga oid leksemalar quyidagicha tarjima etilgan:

1.corpulent – jussali, barvasta, to'lidan kelgan ;

2.petit taille – kichkina bo'yli ; « Boburnoma »da « **past bo'yli** » deyilmoqda, fransuz tilida « **past** » so'zining « **bas** » degan ma'nosi ham bor. Biroq « **petit** »- **kichkina** so'zi qo'llanishi bu fransuz tilining xususiy jihatini ko'rsatadi.

3.barbe ronde – yumaloq soqolli; *barbe=soqol, ronde=yumaloq*;

4.un visage charnu – etdor, go'shtdor yuzli ; « Boburnoma »da « *sarg'ish yuzli, norg'il*(norg'ul=jussador, baquvvat) » deyilmoqda, «*norg'il*» = *charnu(etdor)* bo'lgan taqdirda, « *sarg'ish (sariq rangli)*» so'zi qoldirilmoqda yoki ikkisi bir so'z bilan ifodalanmoqda;

5.tunique – chopon yoki to'n (bu so'z fransuz tili izohli lug'atida : **tunique** = **vêtement couvrant le buste** – *gavdani qoplab turuvchi kiyim* tarzida izohlangan.) **serrée** – siqib turadigan; {si so'zi esa *shunchalik, rosa* degan ma'nodadir} ;

6.sans recherche – betakalluf (kamsuqum, ortiqcha mulozamatni yoqtirmaydigan);

Bunda «*sans=siz*», « *recherche=nozik did, izlanish* » ma’nosidadir.

7.le bonnet mongol – mo’g’ulcha bosh kiyim ; « *mo’g’ulcha bo’rk(oshlangan qorako'l teridan tikilgan bosh kiyim)=le bonnet – boshga kiyadigan kiyim*) tarzida berilgan.

Manières et qualités (de Umar Chaykh Mirza) :

Il était doué d'une grande générosité qui formait le fond de son caractère, et ses qualités égalaient sa générosité. Il était d'un bon naturel, subtil, éloquent, parlait d'une voix douce et était d'une grande bravoure. Il était d'agréable compagnie. .. C'était un personnage aux manières singulières et on raconte d'anecdotes à son sujet. – *Umarshayx mirzoning fe'l atvori: G'oyat sahovatli edi. Xulqi ham sahovaticha bor edi. Xushxulq, hazilkash, gapga chechan va shirinso'z kishi edi. ...xushsuhbat kishi edi.hazil-sho'xlikka o'ch (edi) [...]*.

Ushbu misolda xarakterga oid sifat va belgilar keltirilmoqda:

1.doué – talantli, iste’dodli;

2. générosité – himmatli, xayr-sahovatli ;

3.bon naturel – yaxshi tabiatli, xulqli ;

4.subtil – nozik, ziyrak, ta’riflash qiyin ;

5. éloquent – gapga chechan, gapdon ;

6.une voix douce – yumshoq ovozli ;

7.bravoure – mardlik, jasurlik, ilhombaxsh ;

8.agréable compagnie – yoqimli, xush hamsuhbat ;

Yuqoridagi misollardan ko’rinadiki fransuz va o’zbek tillarida ishlatiladigan so’zlar ma’no jihatidan o’z qo’llanish uslublariga ega.

SULTAN AHMAD MİRZA

« Aspect physique: c’était un homme de haute taille, à la barbe fournie, au teint rouge et à la forte corpulence. Il avait de la barbe sur le menton, mais point sur les deux joues. Sa conversation était plein d’agrément. – Sulton Ahmad Mirzo.

Shakl-shamoyili : baland bo’yli, qo’ng’ir soqolli, qizil yuzli, norg’il kishi edi.

Soqoli engagiga tushardi. Ikki yonog’ida soqoli yo’q edi. Juda shirinso’z kishi edi»[...].

Keltirilgan misolda shamoyilga oid leksemalar berilmoqda :

1.haute taille – baland bo’yli ; dastlabki misolda « *past* » so’zi «**petite**» (kichkina) so’zi bilan ifodalangan edi. Bu so’zning « *bas* » degan ma’nosi ham borligi aytilgan edi. Fransuz tilida *haute* va *bas* so’zlari zid ma’noli so’zlar hisoblansa-da, bu yerda tarjimon mahorati va til strukturasi namoyon bo’lmoqdaki, *haute(baland)* so’zi ya’ni **bas** (past) so’zining zid ma’nosi ishlatilmoqda, demak, tarjima qilishda so’zlarning bu tarzda qo’llanishi – ma’no jozibadorligiga sabab bo’lar ekan, ushbu tahlilda bu o’z aksini topgan.

2.la barbe fournie – “*qo’ng’ir soqol*” *barbe - soqol; fournie – quyuq, mo’l, qalin, serob*; bu yerda “Boburnoma”dagi “*qo’ng’ir*” so’zi “Boburnoma”ning tarjimasida “*qalin, quyuq*” ma’nosini beruvchi *fournie* so’zi bilan kelyapti. Fransuz tilining izohli lug’ati “Larousse”da ham “*fournie – abondante – mo’l, ko’p; par exemple barbe fournie(qalin soqol)*” deb izohlangan. « *Qo’ng’ir* » so’zi esa o’zbek tilining izohli lug’atida « *qora-sariq rangli, to’q malla, to’q rang qoramitir* » deb izohlangan. Tarjimada « *qo’ng’ir – fournie=to’q, mo’l* » tarzida tarjima etilishi shuni ko’rsatadiki, Ahmad Mirzo sersoqol kishi ekan, soqolining mo’lligi albatta uning qo’ng’ir bo’lishiga sabab bo’lishi mumkin. Odatda to’q rang – qalin va quyuq narsalarda namoyon bo’ladi.

3. au teint rouge – *qizil* (rang) *yuzli* ; ushbu misolda « *qizil yuzli – au visage rouge* » deb emas « *au teint rouge – qizil rangli* » deb tarjima etilmoqda. Ushbuning sababi Ahmad Mirzo (4) « **la forte corpulence – barvastaligi, yo’g’onligi o’ziga yetgan** » kishidir. Odatda gavdasi yo’g’on kishilar yuzlari qizilga moyil bo’ladilar. Bu ularning jismoniy holatlaridandir.

5. « Il avait de la barbe sur le menton, mais point sur les deux joues – Ikki yonog’ida soqoli yo’q edi». Berilgan ushbu ta’rifga e’tibor berilsa, Bobur « *ikki yonog’ida soqoli yo’q* » demoqda, tarjimada esa bu gap « *uning iyagidagina soqol bor edi, lekin ikki yuzida yo’q edi* » deb berilgan.

6. Sa conversation était plein d'agrément – *juda shirinso'z kishi edi*, bu ta'rif Bobur nutqiga tegishli, biroq tarjimon : « *uning suhbat yoqimlilikka to 'la edi* » deb tarjima qilgan.

« Qualités morales (de Ahmad Mirza) : sa foi était très orthodoxe...il avait d'excellentes manières...un homme juste...et droit engagements et dans sa parole...il était courageux....extrêmement pudibond.... il était d'un naturel parcimonieux, taciturne et plein d'humanité. – (Ahmad Mirzoning) *fe'l-atvori* : ...*pokiza e'tiqodli kishi edi....juda odobli edi...odil kishi edi...ahd(i) va so'ziga barqaror kishi edi....shijoati bor edi....juda hayoli edi...(ammo) tabiatida xasislik ustunlik qilar, kamso'z va odmi kishi edi...*

Misolning qiyosiy sharhi :

- 1. Au foi orthodoxe** – *pokiza e'tiqodli* ; temuriy amir va beklar ko'plari islom e'tiqodiga e'tiborli bo'lganlari tarixdan yaxshi ma'lum. Xususan, Xoja Ahror Valiydek ulug' alloma va avliyoga Ahmad Mirzo ham murid bo'lgani buning dalilidir. Bobur shunday deydi : «(U) Hazrati Xoja Ubaydullohga murid edi. Hazrati Xoja unga murabbiy va homiy edi (39-bet)». Shuning uchun Ahmad Mirzo shunday ta'riflanmoqda.
- 2. il avait d'excellentes manières** – Boburning lafzi : « *juda odobli edi* »ni tarjimon: « *unda a'lo xulq-atvorlar bor edi* » deb tarjima qilgan.
- 3. un homme juste** – *odil kishi*;
- 4. droit engagements et dans sa parole** - « Boburnoma »da « *ahd va so'ziga barqaror* », tarjimasida esa « *va'dasi va so'zida haqgo'y, to'g'ri so'z* » ko'rinishida kelmoqda.
- 5. il était courageux** – *shijoatli kishi edi* ;
- 6. extrêmement pudibond** – *juda hayoli edi*. Ushbu vasfdagi « extrêmement » so'zi « *juda ham, g'oyat* » ma'nosidadir. « *pudibond* » – pudique – *uyatchan, hayoli* so'zidan olingan. Fransuz tili izohli lug'ati « *Dictionnaire Encyclopedique* »da « *pudibond* –« *exagérément pudique* » – ya'ni « *o'ta hayoli* » deb izohlangan ;

7. il était d'un naturel parcimonieux – *tabiatida xasislik ustunlik qilar* (edi).

Tarjimon lafzida : « *u tabiatan tejamkor edi* » deyilgan.

8. taciturne – *kamso'z* ;

9. plein d'humanité – *odmi kishi edi* ; tarjimadan so'zma-so'z: « **(yuragida)** *odamgarchiligi kuchli* »ma'nosi chiqadi. Bobur lafzidagi « *odmi* » so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida « *sodda, sipo* » deb izohlanadi. Tarjimada « *odamgarchiligi kuchli* » holida kelishi odamgarchilik, insonparvarlik kabi hislatlar odatda odmi – soddadil, sofdir kishilarda kuchliroq bo'lishi hayotiy haqiqatligi tufaylidir.

SULTAN HUSAÏN MİRZA

Aspect physique et habitudes: Sultan Husaïn Mirza avait les yeux bridés et une stature de lion. Il était mince au-dessous de la taille. Bien qu'il eût atteint un grand âge et qu'il eût une barbe blanche, il portait des vêtements de soie rouge ou verte de belle couleur. Il se coiffait d'un bonnet d'agneau noir ou d'un kalpak. Parfois les jours de fête, il portait un petit turban à trois plis. Il l'enroulait de façon assez lâche et maladroite et y fixait une plume d'aigrette. C'était ainsi qu'il se rendait à la prière.– *Shakl shamoyili:* (*Sulton Husayn Mirzo*) *qiyiq ko'zli, sherkelbat kishi edi. Belidan pasti ingichka kishi edi. Ulug' yoshga yetib, soqoli oqargan bo'lsa-da, xushrang, qizil-yashil ipak matolardan kiyim kiyardi. Qora qo'zi terisidan qilingan bo'rk yo qalpoq kiyardi. Ahyon-ahyon iydlarda kichik uch o'rama sallani yap-yassi chirmab, qarqara patini sanchib, namozga borardi.*

Ushbu misolda shamoyilga oid quyidagi leksemalar ajoyib tarzda ketma-ket berilgan:

- 1. les yeux bridés** – *qiyiq ko'zli;*
- 2. Une stature de lion** – *sherkelbatli;*
- 3. Mince** – *ingichka;*
- 4. Barbe blanche** – *soqoli oq;*

Berilgan leksemalar so'zma-so'z tarjima qilingan.

Manières et qualités: ...il était de nature enjouée et agréable, mais d'humeur très changeante et ses propos étaient pareil à ses humeurs. ...Sultan Husaïn Mirza était un homme plein de courage et de vaillance. – *xulq atvori: so'zamol va xushxulq kishi edi. Xulqi biroz tezroq, so'zi ham xulqidek o'tkir edi. ...shijoatli, mard kishi edi.*

Kuzatilgan misolda xarakterga oid so'zlar quyidagi tartibda berilgan:

- 1. Enjouée** – xushchaqchaq, vaqtichog'; Bobur o'z lafzida: **so'zamol** demoqda, tarjimada esa, *enjouée* – *xushchaqchaq* tarzida berilgan.
- 2. Agréable** – “*xushxulq*”; “*xushxulq*”- bu Bobur lafzi, biroz, fransuz tilining izohli lug'ati “*Dictionnaire Encyclopedique*”da “*agréable*” so'zi: 1) “*sympatique* – *yoqimli, istarali*”; 2) “*avenant* – *xush keladigan*” tarzida izohlangan. Tarjimada esa “**xushxulq**” so'zi ayni shu so'z bilan ifodalanishi kuzatilmoxda. Misolda ko'rileyotgan shaxs xulqi, uning xarakteri yoqimli bo'lgani bois “*agreeable* ” so'zi qo'llanmoqda. Fransuz tilida yoqimlilikni ifodalashda aksar ushbu so'z qo'llanishi bois so'zma-so'z tarjima qilinmaganligi bunda ko'rilmoxda.
- 3. D'humeur très changeant** – *xulqi biroz tezroq*; bu so'zda “*xulq – humeur*” tarzida, “*biroz tezroq – très changeant*” tarzida kelmoqda. “*Humeur - xulq, fe'l-atvor*”; “*très changeant – juda o'zgaruvchan*” degani. Ushbu sifat tarjimasi istisno bilan kelgan.
- 4. Plein de courage** – *shijoatli*;
- 5. vaillance** – *mard*; ushbu sifatlar esa so'zma-so'z tarjima qilingan.

Misollardan ma'lum bo'lmoqdaki, o'zbek tili fasohati – kamtarlik bilan ta'riflash orqali aks etayotgan bo'lsa, fransuz tili jozibasi – tavsifni yetkazib bera oluvchi so'zlarga boyligida ko'rinxmoqda.

SULTAN MAHMUD MİRZA

Aspect physique et habitudes: C'était un homme de petite taille, à la barbe clairsemée, corpulent et résistant à la douleur. – *Sulton Mahmud Mirzo. Shakl-shamoyili : ...past bo'yli, siyrak soqolli, semiz, kamhafsalaroq kishi edi.*

Misolda kelgan xarakterga oid so'zlar talqini:

- 1. petite taille** – *past bo'yli* ;
- 2. à la barbe clairsemée** – *siyrak soqolli* ;
- 3. corpulent** – *barvasta, gavdali, semiz* ;
- 4. résistant à la douleur** – *g'amga bardoshli* ; biroq yuqoridagi ikki sifat « *barvasta va bardoshli* » so'zlari Bobur lafzida bunday emas, balki, « *kamhafsala* » dir. Bu so'z o'zbek tilining izohli lug'atida « *bir ishga astoydil yopishib harakat qilmaydigan, ishtiyogi yo'q* » deb izohlangan.

Tahlildan ko'rindiki ushbu gap tarjimasi istisnodir.

« **Il avait une violente inclination pour la tyrannie et la pédérastie. ...Et punition de la tyrannie et la pédérastie de Sultan Mahmud Mirza, ses fils moururent tous à la fleur de l'âge. ...un mécréant....il était sans coeur et sa pudeur était des moindres. ...Sultan Mahmud Mirza avait une mauvaise élocution et on ne pouvait pas comprendre ses paroles du premier coup. – zulm va buzuqlik bilan ko'p mashg'ul bo'lar (edi), ...zulm va kasofatidan barcha o'g'lonlari juvonmarg bo'ldilar.....yomon e'tiqodli kishi edi....yuraksiz, hayosi kamroq kishi edi. ...badkalom edi. So'zini darhol anglab bo'lmasdi. »**

Avvalgi ko'rib chiqilgan misollarda yaxshi sifatlar talqin qilingandi. Berilgan misolda esa yomon sifatlar ketma-ketligi uchramoqda. Bunda Sulton Mahmud Mirzoning yomon xulq-atvori keltirildi:

- 1. une violente inclination** – *zo'ravonlikka ishtiyoqmand* ;
- 2. la tyrannie** – *zolim* ;
- 3. la pédérastie** – *buzuqlik, bachchabozlik*
- 4. un mécréant** – *dahriy, dindan chiqqan* ;
- 5. sans coeur** – *yuraksiz* ;
- 6. sa pudeur était des moindres** – *nomusliligi kuchsiz, yo'qolgan* ;
- 7. une mauvaise élocution** – *gapirishi yomon*.

Yuqoridagi barcha misollardan ko'rilib turibdiki, « Boburnoma » fransuz tarjimoni Bake-Grammon tomonidan mahorat bilan tarjima qilinib, undagi har bir xarakter va shamoyilga oid leksemalar o'ziga xos uslub bilan qo'llangan.

2.3. “Boburnoma”da manzara va tasvirga oid so’zlarning qiyosiy tahlili.

“Boburnoma” asari ko’p sohalarni o’z ichiga qamragan asar ekanı hammamizga yaxshi ma’lum. Unda faqatgina XV asr oxiri XVI asr boshlarida Movarounnahr va unga yaqin hududlardagi kishilar va siyosiy-ijtimoiy ahvol emas, tabiat manzaralari va joylar tasviriga oid lavhalar ham Boburning teran tafakkur nazari ila mohirona tasvirlangan. Asarda ko’p yillik voqealar bayon qilinadi va Bobur o’zi ham ushbu voqealarda bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi. Qolaversa, u o’zi borgan joylardagi hayot tarzi, turli sharoitlarini, manzara(peyzaj) va tasvirga oid lavhalarni ham o’ziga xos tasvirlaydi. “Boburnoma”da tasvirlangan asosiy obyektlardan biri bu tabiat manzaralaridir.

Le paysage dans le Baburnama – Boburnomada manzara talqinining tavsifi:

Il observe le pays en scientifique, et en évalue les potentialités en politique et en aménageur. – Bobur o’z xotiranomasidagi iqtiboslar uni tabiatni ilmiy jihatdan kuzatganini, siyosat va adolatda ham ilmiylik va odob, kuzatuvchanlikni o’zida namoyon qilganidan dalolat qiladi.

La description est méthodique et comprend, pour chaque pays :- u har bir mamlakat uchun kuzatuv jarayonini tarkiblarga bo’ladi:

- **récit géographique : montagnes et plaines, routes, agriculture, etc.-**
geografik hikoya qilish: tog’lar va kengliklar, so’qmoqlar, qishloqlar va hk ;
- **récit naturaliste : flore et faune ;-tabiatga oid hikoya qilish: o’simlik va fauna olami;**
- **récit ethnographique : peuples et mœurs, croyances et curiosités, toponymie.-** *etnografik hikoya qilish: xalqlar va udumlari, e’tiqod va qadamjolar, joy nomlari.*

Les ressources agricoles et naturelles sont détaillées : - tabiat va xo’jalikka oid detallar:

- les cultures : céréales, riz, prairies, arbres fruitiers, vignes, melons ; on compare la qualité des fruits et des vins ; - *ekinlar: dukkaklilar, guruch, gullar, uzumlar, qovunlar. Bunda meva va sharbatlar sifati qiyos qilinadi;*
- l'élevage : moutons, bovins, volailles ; les types de prairies et pâturages sont différenciés selon qu'ils « conviennent aux chevaux », aux moutons, ou « ne valent rien » - *chorvachilik: qo'y, mol, yilqilar; ularning turlari va farqlari sifat jihatdan qiyoslanadi* ;
- les ressources issues des montagnes et forêts sont détaillées : type de gibier ou de poisson, qualité du bois à brûler, richesses minières : argent, lapis-lazuli... - *tog' jinslari va konlar: o'rmonlar va ko'llar: baliq va suv jonzotlari turlari, daraxtlar turi va sifati, foydasi jihatdan qiyoslanadi;*

la faune et la flore sont décrites avec précision, inventoriées, évaluées, comparées. Leurs noms locaux, leurs usages alimentaires, médicinaux ou autres, les mythes ou anecdotes sont cités – *fauna va o'simlik olami. Ularning eng noyobidan eng ko'p turlilariga qadar sifatlari qiyos qilinadi. Mahalliy va ilmiy nomlari talqini qilinadi. Tabobat yoki xalq orasida mashhurligi bayon etilib, ular to'g'rida rivoyat va amaliyot xususida so'z boradi*”

Ayrim joylar tasvirlanganida aksar o'sha joydagi bahor manzarasini yoritishga e'tibor qaratilgan. Quyida “Boburnoma” va unig fransuzcha tarjiması “Livre de Babur – Baburnama”da peyzaj va tasvirga oid so'zlar qiyosiy tahlil qilinadi. Shuni ta'kidlash kerakki, qiyosiy tahlildan maqsad, ikki til o'rtasidagi umumiyl va xususiy jihatlarni yoritishdir. Bobur manzaralar tasviriga to'xtalishda dastlab joyning nomi va geografik jihatdan tuzilishiga to'xtaladi, so'ngra, u joyning manzara va tabiatiga taalluqli ta'riflarni beradi. Quyida ana shu fikrlar dalili va tadbiqi qilinadi:

O'shning tabiatini va tasviri: “[...]Yana biri O'sh shaharchasidir. ...Havosi yaxshi, oqar suvi mo'l. Bahori juda yaxshi bo'ladi...Binafshasi behad nafis bo'ladi. ...ko'p lola chechaklar ochiladi.”³⁶ - “un autre district du Ferghana est

³⁶ Z.M. Bobur “Boburnoma” 29-30-bet. T.: O'qituvchi 2008

celui d’Och. Le climat d’Och est bon. Les eaux vives y abundant et le printemps y est excellent. ...À Och il y a de jolies violettes, ...Tulips et roses y fleurissent en abondance.”³⁷ Berilgan dastlabki misolni qiyosiy tahlil qilamiz: misolda peyzaj tasviri bayon etildi.

1. *Shaharcha – district.* Fransuz tilida *district* so’zi *tumanga* nisbatan ishlatiladi. Bu yerda shaharchani tuman deyilishi tarjima jihatidan istisno, biroq, tarixiy nuqtayi nazardan bu joy *Farg’ona* hokimligining *tumani bo’lgan*.
2. *Havosi yaxshi – le climat ...est bon.* Bunda *havo* dan maqsad *iqlim* bo’lgani aniq ko’rinib turibdi. Shunig uchun buni mantiqan so’zma-so’z tarjima qilingan. *Bon – yaxshi* ma’nosini beradi. Bu so’zma-so’z tarjima qilingan. Odatda fransuz tilida *yaxshi* so’zi ikki xil ko’rinishda keladi. *Bien va bon*, bunda *bon* doimo otlar bilan, *bien* esa fe’llar bilan qo’llanadi. Bu yerda ana shu grammatik qoida qaror toptirilgan.
3. *Binafshasi behad nafis – jolies violettes* bunda *binafsha – violette*, *nafis – jolie* misoldagi *jolie-chiroysi* degan ma’nodadir, *behad* so’zi ana shu bir so’z bilan ifodalangan. *Behad* so’zi *hadsiz*, *benihoya* so’zlariga muvoqfiqligini yaxshi bilamiz. Fransuz tilidagi *joli* so’zi asl ma’noda *chiroysi* so’ziga mos keladi. *Behad* ning o’rniga qo’llanishi shuni bildiradiki, Bobur Mirzo *behad* so’zida chiroyni nazarda tutgani yuzasidan shunday tarjima qilingan bo’lsa kerak.
4. *Ko’p lola chechaklar ochiladi* bu misol so’zma-so’z tarjima qilingan. *Tulipes – lolalar, roses – atirgullar, fleurissent – gullaydi, ochiladilar.* Izoh tariqasida yana shuni ham aytish mumkinki, manzara va tasvirda gullarning o’rni alohidadir. Biron manzara haqida gap borganda albata unda gul ham borligi ko’pincha tasavvurga keladi.

Boburning davlat ishlari va ilmiy faoliyatni teng darajada, yuksak mahorat bilan olib borgani uning barcha ishlarida aks etib turadi. Doktor Bake-Grammon fransuz sharqshunos olimi sifatida uning asarini tarjima qilar ekan, uning ilmiy

³⁷ J. L. Bacque-Grammont “Le livre de Babur” page 46. UNESCO 1980, Paris 2003.

qimmati nechog'lik ahamiyatli ekanini "Boburnoma"ga bergan muqaddimasida urg'u bilan ta'kidlaydi. Manzara va tasvirga doir misollar boshqa adib va yozuvchilar ijodida ham ko'p uchraydi. Ammo Bobur Mirzoning kitobida keltirilgan misollar reallikning o'zidir. Buni quyida kelajak misollar ham tasdiqlaydi.

Kobulning tasviri: [...] **jo'langlar yashillik paytida juda so'lim ko'rindi**. ...**Kobul havosidek havoli yer olamda borligi ma'lum emas**. Yozlarda kechalari po'stinsiz yotib bo'lmaydi. Qishda qor aksar tushsa-da lekin qattiq sovug'i yo'qdir.³⁸ - *elle jouit d'un panorama superbe quand ces prairies, ...le climat ici est tres agreeable. On n'en connaît pas dans le monde qui le vaille. Même pendant les chaleurs, on ne saurait dormir la nuit sans pelisse. L'hiver, bien que la neige tombe généralement en abondance, le froid n'est pas excessif.*³⁹

Berilgan iqtiboslarda iqlim haqida so'z yuritilganini ko'rmoqdamiz. Tarjimani qiyosiy tahlil etsak, bu yerda aksar holda so'zma-so'z tarjima kuzatiladi: *tun-la nuit; sovuq-le froid; po'stinsiz-sans pelisse*. Grammatik jihatdan o'zbek tilida qoshimchalar so'z ortiga qo'yiladi. Fransuz tilida esa oldiga qo'yilib, predlog tarzida keladi alohida ajratilib yoziladi. Buni aytilgan misolda ko'rib turilibdi. Istisnoli tarjima ham bu yerda bor: *yoz so'zi qoldirilib*, Bobur lafzidagi *yozlarni les chaleurs-issiqlar* tarzida qo'llanilgan. *Yozlar* deganda Bobur Mirzo *yoz paytlarini nazarda tutadi*. Tarjimon esa buni *issiq paytlari, issiqlar* tarzida keltirgan. Zahiriddin Muhammad Bobur naqadar nafis did sohibi ekani uning ta'rif va tasniflarida kamtarona va mahovatli ko'rindi. U Kobul va uning tasarrufiga kiruvchi yerlarni tasvirini fasohat bilan keltirgan. Doktor Bake Grammon ham bu kabi ajoyib tasvirlashni qoyilmaqom tarjima qilgan. "**Bahorda Choshtuba dashti va Gulbahor etaklari juda fayzli bo'ladi sabzasi Kobulning o'zga yerlariga qaraganda xiyla yaxshi bo'ladi: turli-tuman lolalar ochiladi. Bir marotaba lola navlarini sanashlarini buyurdim: o'ttiz to'rt nav lola chiqdi. Chunonchi, bu yerlar ta'rifida bir bayt aytilgan edi:**

³⁸ O'sha kitob. 106-bet

³⁹ meme livre. Page 169-170.

**Sabzavu gullar bila jannat bo'lur Kobul bahor,
Xossa bu mavsumda Boron yozisi-yu Gulbahor.⁴⁰**

Au printemps, la plaine de Baran, celle de Tchachtuba et les pentes du Gül-I Bahar sont très belle. La verdure y est beaucoup plus belle qu'en aucun autre endroit du pays Kabul. Toutes sortes de tulipes y éclosent. Un jour, j'ordonnai que l'on compte les espècesnde tulipes. On en trouva trente-quatre. C'est en éloge de ces lieux que l'on cite le distique suivant:

*Avec sa verdure et ses fleurs, le Kabul au printemps deviant le paradis,
Surtot, en cette saison, la plaine du Baran et le Gül-i Bahar.⁴¹*

Ushbu ko'rib chiqilgan ajoyib misol peyzajga oid misoldir: bunda asosan so'zmaso'z tarjima ko'zga tashlanadi: *le printemps-bahor; la verdure-sabza, la verdure* fransuz tilida *ko'kat ma'nosida ham qo'llanadi. Sabza* so'zi esa bu ma'noda qo'llanilmaydi; *tulipes-lolalar;* Fransuz tilida *pronom-olmosh* qoidasi o'zbek tilidagi olmosh qoidasiga biroz farqlanish bilan muvofiqlashadi. Masalan, misolda *district-tuman* so'zi keltirilib, ikkinchi gapda uning o'rniga *celui-buniki(m.r)olmoshi* yoki *la plaine-dasht* so'zi *celle-buniki(j.r)olmoshi* qo'llangan; *toutes de sortes-turli-tuman* deb ifodalanmoqda. Biroq, *Toutes de sortes – barcha turi* degan ma'noni beradi.

“Boburnoma”da peyzaj va tasvirga oid matnlar juda ko’p uchraydi. Ularning har biri Bobur tomonidan fasohat bilan ta’riflangan. Fransuzcha tarjimasida ham tarjimon ana shu fasohatni saqlab qolishga uringan. Misol: “...kentlar orasida Istalif va Istarg’achga teng keladigani yo’q. ..Istalifchalik kent bu yaqin orada ma’lum emas. ...Katta anhor kentning ichidan oqib o’tadi. Soyning har ikki tarafi bog’lardir. Sabzalik, safoli bog’chalari bor. suvisov uq...aksar vaqt tiniqdir.⁴² – ...aucun de ces villages n’égale Istalif ou Astarghatch. ...Peu de villages n’égalent Istalif. Un grand torrent traverse le village et des jardins verdoyants bordent ses rives. L’eau y est si fraîche.⁴³ Ushbu misolda Bobur tilidagi

⁴⁰ O’sha kitob. 153-154-bet.

⁴¹ Meme livre. Page 238.

⁴² O’sha kitob. 111-bet

⁴³ Meme livre. Page 175

lafzlar fasohati, uqtirib qo'yish kayfiyati kuchli ekanini har bir o'quvchi yaxshi his qiladi. Doktor Bake-Grammon tarjimada istisno va fransuz tilining "uqtira oladigan" so'zlaridan mahorat bilan foydalangan: *jardins verdoyants-sabzalik, safoli bog'chalar* ammo bu istisno tarjimadir. So'zma-so'z tarjimada: *ko'karayotgan bog'lar* bo'ladi. Yana istisno shuki, Bobur lafzidagi uchta gapni bir qo'shma gap bilan ifodalangan: "katta anhor" dan boshlab oxirigacha uch gap bo'lib, u aytilgan bir gapda mujassamlashgan. *Suvi sovuq...Aksar vaqt tiniqdir* gaplari ham bir so'z bilan ifodalangan: *fraiche(toza, salqin, sovuq)*⁴⁴. Bobur tasvirlashda xilma-xil detallarni jalb qilganini ko'rish, berilayotgan iqtiboslarda namoyon bo'lib turibdi. Ularda joylarning umumiyligi ko'rinishi, iqlimi, binolari kabi detallar asosiy o'rinda keladi. Chunonchi, joylarni tasvirlashda ularning iqtisodiy jihatini aks ettiruvchi, hayot tarzini ifodalovchi detallar: mevalar, sabzavot yoki suvlar, ov qilinadigan hayvonlar hamda ba'zi tirikchilik manbaiga aylangan aholining dehqonchiligi, savdo vositasi kabi detallarga e'tibor qaratiladi. Doktor Bake-Grammon ham bu detallarni tarjima qilishda fransuz tilining o'ziga xos usullaridan foydalanganiga guvoh bo'lamizki, gapning strukturasi, fe'l yoki sifatlarning uyg'unlashuvi, Boburning kamtarligini fransuzchaga o'girishning ajoyib uslublarini namoyon qilgan. Andijon va shunga yaqin ba'zi hududlar tasviri fikrlarimizni isbotlaydi: "**G'allasi mo'l, mevasi ko'p, qovun va uzumi yaxshi bo'ladi. Qovun pishig'ida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas.** Andijonning noshvotisidan yaxshiroq noshvoti bo'lmas."⁴⁵ - *ce district produit grains et fruits en abundance. Melons et raisins y sont excellent. Dans les jardins potagers on n'a point coutume de les vendre tant ils abondent lors de leur maturité, et il n'est point de meilleurs melons de l'espèce nashpati que ceux d'Andijan".*⁴⁶

Ushbu misolda qiyosi qilnidagigan sifatlar ushbulardir:

- 1) Misoldagi *mo'l* va *ko'p* so'zlarini fransuzchaga *en abundance-mo'llikda* deb tarjima qilingan. Buning sababi ushbu so'z aytilgan ikki so'zning ham ma'nosiga birdek muvofiq kelishidir.

⁴⁴ Fransuzcha-o'zbekcha lug'at(2008). 237-bet

⁴⁵ O'sha kitob. 29-bet

⁴⁶ Tel livre. Page 45

- 2) ...*yaxshi bo'ladi so'zi y sont excellent ya'ni uyerda a'lo darajadadir* deb tarjima qilinagan. Bu fransuz tilining o'ziga xos xususiyatidir.
- 3) *Nachpati-noshvoti* bu so'z aynan qoldirilmoqda. Sababi nokning noshvoti deb aytilishi bu “*nokning sershira, suvli, oqsariq, qizil yoki sarg'ish ko'k yirik navi*”⁴⁷dir. Bu aynan nok turining nomiga urg'u ekani hisobidan aynan holda qoldirilgani ma'lum bo'lmoqda. Yan bir sababi Fransiyada nokning bu kabi turi uchramaydi.

Tasvir qilishda Bobur Mirzo singari nozik did sohibi kam uchrashini tarixchi va boburshunoslar yaxshi biladilar. “Boburnoma”da tasvirga oid misollar bisyor bo'lsa-da, biz qiyosiy tahlilini qiladiganlarimiz muxtasarroqdir, o'quvchiga malol tug'dirmasin. Doktor Bake-Grammonning tarjimasi orqali biz fransuz tili strukturasi va o'ziga xos jihatlarini kashf qilib boramiz. Quyida misol: [...] **Qushlardan Hindustonda tovs tarqalgan. Bo'yoqdor va juda chiroqli jonivordir. Tanasi rangi va bezaklaricha emas. Gavdasi turnadek keladi, biroq bo'yи turnadek baland emas. Narining ham, urg'ochisining ham boshida yigirma-o'ttiztadan ikki-uch enlik balandlikdagi pari bor. Modasining bezagi va bo'yog'i yo'qdir. Nar tovusning boshida gulsafstar rangidagi halqa bor, bo'yni chiroqli ko'k rangda. Orqasining bo'ynidan pastroq qismi sariq, zangor, ko'k va siyohrang naqshlar bilan bezalgan**⁴⁸. - *parmi les oiseaux, il y a le paon. C'est un animal au plumage multicolore d'une grande beauté. Ses proportions ne valent point ses couleurs ou sa beauté. Il a la taille de la grue, mais n'est point aussi haut. Sur la tête du male et de la femelle, on trouve vingt ou trent plumes hautes de deux épaisseurs de main. La femelle n'a ni parure ni couleur. La tête du male est entourée d'un collier couleur d'iris. Son cou est d'un beau bleu. Au-dessus du cou, il a le dos peint de jaune, de vert-perroquet, de bleu det de violet, et orné de très petits yeux.*⁴⁹

Ushbu misolda qushning tasviri kelrtirilganiga guvoh bo'ldik. Har ikki tilda ham o'ziga xos keltirilgan jumlalarda o'xshashlik va istisno mavjud. Misolda aksar

⁴⁷ O'zbek tilining izohli lug'ati. “N” harfi, 24-sahifa (elektron versiyada).

⁴⁸ O'sha kitob. 208-bet

⁴⁹ Tel livre. Pages 328, 329

so'zma-so'z tarjima bo'lgan. Qushning nomi, ranglar nomlari: *le paon – tovus; le male – nar; la femelle – urg'ochi; jaune – sariq; bleu – ko'k; violet – siyohrang* va hokazo. Istisnoli tarjima: “*petits yeux – naqshlar*” bunda *petits yeux – kichkina ko'zchalar* ma'nosidadir. *Naqshlar* dan murod, o'sha tovus patidagi ko'zchalar shekilli tarjimon buni shu tarzda keltirgan. Misolning qisqa qiyosiy tahlilidan muxtasar xulosa shuki, o'zbek va fransuz tillari so'zga boylikda bir-biridan betakrordir.

Zahiriddin yoshligidanoq turli sayohatlarni yaxshi ko'rgan. Bunday safarlarda chiniqqan ham. Yosh bo'lishiga qaramay, o'lkamizning geografik qiyofasini tasavvur qila olgan. Olim 15-16 yasharligida Farg'ona, Samarqand va Toshkent oralig'ini bir necha marta kezib chiqqan. 19 yoshga to'lган yili Hisor tarafidan toqqa ko'tarilib, Fondaryo va Iskandarko'l orqali Zarafshon vodiysiga o'tib, Samarqandga kelgan. U bu haqda shunday yozadi:

«[...] *Qamrud darasiga kirib, yuqori tomonga qarab ketdik. Tor va uchma yo'llarda, baland va tik dovonlarda ko'p ot va tuya qoldi. Uch-turt manzil qo'nib, Siratog' dovoniga yetdik. Dovonmisan-dovon. Hech qachon bunday baland va uchma yo'llar bilan yurmagan edik. Ko'p tashvish va mashaqqatlar bilan xatarli tor va uchmalardan o'tib, yuz azobu zahmatlar bilan halokatli balandliklar, tor dovonlardan oshib, Fon tumaniga keldik. Fon tog'larining orasida bir katta ko'l bor, uning muhiti - sathi taxminan bir sha'riy keladi, ajab ko'ldir; g'aroyibotdan holi emas...*» Boburning mazkur safari bundan 480 yilcha ilgari amalga oshirilganligini inobatga olsak, uning sarguzashtlarga qanchalik ishqiboz bo'lganiga amin bo'lish mumkin.

Boburning yozishicha, 21 yoshigacha Farg'onadan Buxorogacha, Toshkentdan Hisor va Hirotgacha bo'lgan barcha shahar va qishloqlarda hamda dashtu tog'larda bo'lgan. Farg'ona vodiysida u borgan eng sharqiy joy – O'zgan shahridir. O'zbekistonning g'arbi, Buxoro va Qarshi ham Boburga yaxshi tanish edi. Shuningdek, Eron bilan Afg'oniston chegarasida, o'sha davrning eng yirik poytaxtlaridan bo'lgan Hirotda bir qancha vaqt yashagan. Shu tariqa umrining deyarli 36 yilini safarlarda o'tkazgan va o'n minglab kilometr yo'l bosgan, Bobur

Farg'onadan Bangolagacha (Hindistondagi Bengaliya) borgan. Sayohatlari mobaynida esa Bobur o'zining shoh asari «Boburnoma» uchun boy ma'lumotlar to'plagan. Quyida yana misol:

[...]il y a aussi le perroquet. On le trouve lui aussi dans le Bejevr et les regions du Sud. En été, à la maison des mûres, il vient dans le Ningnahar et le Lamghanat,...il y a aussi une espèce qui encore plus petite que le perroquet des jungles. Sa tête est rouge de même que le dessus de ses ailes. Le bout de sa queue est blanc sur deux épaisseurs de main de longueur. Certains spécimens de cette espèce ont la tête couleur d'iris. Cette espèce ne parle pas. On l'appelle perroquet du Cachemire.⁵⁰- *Yana bu yerda* (Hindistonda) *to'ti tarqalgan. U ham Bajavr va undan pastroqdagি yerlarda uchraydi. Yozda tut pishig'I chog'ida Ningnahor va Lamg'onotga uchib keladi.* ...*yana bir nav to'ti bor. u changalzor to'tisidan ham kichikroq. Boshi qip-qizil, qanotlari ham qizil. Dumining uchi ikki enlikcha oq bo'ladi. bu toifa to'tilar gapirishni bilmaydilar. Ularni Kashmir to'tisi deb ataydilar.*

Sharh: ushbu misolda to'ti haqida gap bormoqda. Bu iqtibos tasvriga doir misoldir. Unda o'zbek va fransuz tilida tasvirga xos so'zlar qo'llanishi alohida uslubda berilgan. Tarjima asosan so'zma-so'z bo'lgan. Istisno yo'q. *le perroquet-to'ti; rouge-qizil; la tête-bosh; aile-qanot; queue-dum.*

Bobur asarida hayvonot dunyosini to'rt tipga bo'lgan: quruqlik hayvonlari, parrandalar, suvda va suv yoqalarida yashaydigan qushlar, suv hayvonlari. Bu esa Bobur XVI asrdayoq hayvonot dunyosini tasniflash bilan shug'ullanganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, uning Hindiston fili to'g'risidagi ma'lumotlari g'oyat qiziqarli. «...Yovvoyi hayvonlardan biri fildir. Hindistonlik uni «haatiy» deydi... Fil yirik jussali va ziyrak jonivordir. Har nima desalar biladi va har nima buyursalar qiladi...» Bobur karkidon haqida shunday yozgan: «Yana biri karkdir. Bu ham yirik jonivor. Kattaligi uch sigircha bo'ladi... Bir shohi bor burnining ustida, uzunligi bir qarichdan ko'proq...»

⁵⁰ Tel livre. Page 328.

«Boburnoma»da keltirilgan joy va tabiiy ob'ektlarning nomlari o'sha yerda yashaydigan aholi tilida keltirilgan. Bu esa toponimikaning asosiy qoidalaridan biri, ya'ni joy nomlari tarjima qilinmasligini muallifning yaxshi anglaganidan dalolat. Farg'ona vodiysining janubi-sharqidagi tog'larni (hozirgi nomi Turkiston tizmasi) Bobur Andijon tog'lari, shimoldagi tog'lar (Talas)ni esa Yettikent tog'lari, deb atagan. «Boburnoma»da O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindistondagi yuzlab geografik nomlar, jumladan, Konibodom, Hodarvesh, Kuhisafid, Nazargoh, Toshkent, Samarqand, Sivolak kabilar tarixiy va lug'aviy jihatdan izohlab berilgan. «Boburnoma»ning o'ziga xos tomoni shundaki, unda muallif turli hududlarning tabiat, geografik xususiyatlari, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda xo'jalik imkoniyatlarini yaxlit majmua sifatida sodda tilda tasvirlaydi.

Manbalarda keltirilishicha, Boburning yonida doimo xotira daftari bo'lgan va u ko'rgan, bilgan, eshitganlarini darrov yozib qo'yardi. Keyinchalik yozuvlarini tartibga solib, qo'shimchalar kiritib, tahrir qilib, yaxlit asar ko'rinishiga keltirgan.

Darhaqiqat, olimning yaratgan badiiy asarlari bilan bir qatorda O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindiston davlatlarining geografiyasi, tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, tabiat, etnografiyasi va tibbiyotiga oid muhim ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan «Boburnoma» alohida o'rinni tutadi. «Boburnoma» Zahiriddin Muhammad Boburning Farg'onadagi yoshlik chog'laridan to Hindistonda podshoh bo'lganigacha boshdan o'tkazganlarining mufassal ta'rifidir.

Shuningdek, "Boburnoma"da tabiatning juda ko'p va yil fasllarining manzarasi, hayvonot va nabototning har biriga xos bo'lgan ko'rinishlarini aks ettiruvchi tasvirlar mohirona real qarashlar bilan tasvirlangan.

Ammo, shuni aytish ham kerakki, Bobur bu joy nomlari yoki boshqa obyektlar tasvirini real va haqiqiy tasvirlaganiga shubha yo'q. Bu tasvirlashlarni badiiy mubolag'aga yo'yish ayni xatolikdir. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, "Boburnoma" va uning fransuzcha tarjimasida manzara va tasvirga oid so'zlar har ikkala tilning o'ziga xos jihatlari bilan keltirilgan.

XULOSA

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbek mumtoz adabiyotining XV asrda yashab ijod etgan buyuk namoyondalaridan biridir. Bobur qalamiga mansub “Boburnoma” asari XVI asr o‘zbek nasrining eng qimmatli namunasidir.

Bu asar mazmun e’tibori bilan qomusiydir unda Markaziy Osiyo, O‘rtalik Osiyo, O‘rtalik Sharq va Hindiston o‘lkalarining tarixi, etnografiyasi, adabiyoti va etnik qatlamlari tabiatni, o‘simgiliklar va hayvonot dunyosi tili adabiyotiga oid qimmatli va ishonarli ma’lumotlar jamlangan. Bu shoh asarda adib Boburning yuksak badiiy mahorati, sodda va tushunarli til uslubi, uning o‘ziga xos betakror go‘zalligi o‘z aksini topgan. Asarning bosh qaharamoni Zahiriddin Muhammad Boburning o‘zi. Uning hatti-harakati, amalga oshirgan ishlari, maqsad va intilishlari, ularni amalga oshirishdagi qat’iyat va mahorati asar qahramonini ideal qahramon darajasiga ko‘taradi.

Boburning eng muhim tomoni shuki, u o‘z asari bo‘lmish “Boburnoma”ni turkiy (eski o‘zbek tilida) yaratilganligi adibning o‘z ona tili rivojiga qanchalik e’tibor qaratganligidan dalolat beradi. Qolaversa bu shoh asar turli yirik tillarga o’girilgan va tadqiq etilgandir. Chunki, Boburning “Boburnoma” asari o‘zbek adabiy tili tarixini o‘rganishda ham noyob manbalardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur BMI yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

- Biz ushbu BMI da Zahiriddin Muhammad Bobur ijodining o‘zbek adabiyotini rivojlanishida tutgan o‘rnini aniqladik va uning bizga qoldirgan adabiy merosini birma-bir sanab chiqib, barcha asarlarining qaysi sohaga bag‘ishlanganligini hamda ularning o‘zbek va jahon adabiyoti rivojida qay darajada ilmiy-adabiy qimmatga ega ekanligini o‘rgandik va ilmiy-nazariy xulosalar chiqardik.
- “Boburnoma” asari va uning fransuzcha tarjimasi ikki fransuz boburshunosi tomonidan ikki asrda tadqiq etilgani shuni ko’rsatadiki, bu chinakam qomusiy asar ekanligidan dalolat beradi. Qolaversa, asarning ilmiy-badiiy qimmati nechog’lik ekani hamda u tarixiy manba sifatida boshqa asarlardan afzalliklari bor manba ekani yuzasidan qiyosiy tahlillar asosida o‘rganildi.

Shu bilan birgalikda, o‘zbek va fransuz tillaida badiiy tasvir va qiyofaga oid so’zlar qo’lanilishining umumiy va xususiy jihatlari turli iqtiboslar va misollar yordamida qiyosiy tahlil etildi. Nazariy va ilmiy xulosalar bergen holda, tanlangan mavzu xususida fikr yuritib, bu borada tilshunoslikda qiyosning o’rni alohida ekanini birma-bir misollarda ta’kidlandi. Boburning “Boburnoma” asarida qayd etilgan joy nomlarini, tarixiy shaxslarning nomlari va xarakteri ilmiy tasnif va tavsifi amalga oshirildi. Asarning ikki tildagi nuxxalaridagi tasvir bilan bog‘liq bo‘lgan leksemalarning tilshunoslik nuqtayi nazardan leksik-semantik va grammatik hamda qiyosiy tahlili amalga oshirildi va mazkur nomlarning ma’noli komponentlari, tuzilishi so‘z turkum jihatidan o‘rganildi.

Shu bilan birgalikda Boburning “Boburnoma” asari tili fransuz tilida qanday ahamiyatli asar ekanini doktor Bake-Grammon tarjimasini qiyosiy tahlil etish orqali yaxshi bilib olindi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurashid Abdug’afurov. O’zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Azimjonova S, Gosudarstvo Babura v Kabule i v Indii, M., 1977;
3. Ozbek adabiyoti tarixi, 3j., T., 1978;
4. Axmedov B., Istorikogeograficheskaya literatura Sredney Azii XVI—XVIII vv. (Pismennie pamyatniki), T., 1985;
5. Le Livre de Babur, Parij, 1985;
6. Histoire des Grands Moghols, Jean- Paul Roux, Paris 1995.
7. Babur- Chah,fondateur de L’Empire des Indes, Paris 1989.
8. Boburnoma, Z.M.Bobur,Toshkent,2008.
9. « Boburnoma »ning Badiiy qimmati haqida, S. Jamolov,Toshkent 1989.
10. A Mamadaliyev.«Dictionnaire Français Ouzbek »Tachkent. 2008.
11. Petit L’arousse « Dictionnaire Enciclopedique ».Paris. 1993.
12. Mémoirs de Babure, A.Pavet de Courtille, Paris 1990.
13. Turquie, Arthaud, 1980.
14. Les Barbares, Bordas, 1982.
15. Histoire des Turcs, Fayard, Paris 1989.
16. Tamerlan, Fayard, Paris 1991.
17. Histoire de L’Empire mogol, Fayard, Paris 1993.
18. Le Roi, Fauard, Paris 1995.
19. Mustafa Kemal et la Turquie nouvelle, Maisonneuve et Larose, 1982.
20. Babur-name et son auteur, (questions d’histoire),Moscou, 1982.
21. Le livre du Mubayin « Mubayin haqida » en ouzbek Tachkent, 1983.
22. Zainud- din, Tabaqat-i Baburi, Delhi, 1982.
23. Mémoires du premier Grand Mogol des Indes, (1494-1529) Paris 1985.
24. - , - , 2006.

Internet saytlari:

1. <http://google.ru>
2. <http://wikipedia.org>